

BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ

**MUSTAQIL  
O'ZBEKISTONDAGI  
ISLOHOTLARNING  
NAZARIY  
KONSEPTUAL  
ASOSLARI**

SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI

SAMARQAND-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PYeDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMUY-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITYETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OShIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**

**"MUSTAQIL O'ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLARNING  
NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI"**

**MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo'nalishi: O'zbekiston tarixi**

**Samarqand -2022**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv  
dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**

Samarqand davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasи professori F.Nabiев, dotsent O.Irisqulov, dotsent S.Muhiddinov

**Taqrizchilar:**

Samarqand davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasи mudiri, professor B.G’oibov

**Xorijiy ekspert:**

Tojikiston davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori Sh.Vaxidov

O’quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-  
dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

# **MUNDARIJA**

|      |                                     |    |
|------|-------------------------------------|----|
| I.   | MODULNING ISHCHI DASTURI.....       | 5  |
| II.  | INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....     | 11 |
| III. | NAZARIY MATERIALLAR.....            | 17 |
| IV.  | AMALIY MASHG’ULOT MATERIALLARI..... | 43 |
| V.   | GLOSSARIY.....                      | 64 |
| VI.  | ADABIYOTLAR RO’YXATI .....          | 69 |
| VII. | EKSPERT XULOSALAR.....              | 73 |

## I. MODULNING ISHCHI DASTURI

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlarihamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdekamaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

### I. Modulning maqsadi va vazifalari

**"Mustaqil O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari" modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**"Mustaqil O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari" modulining vazifalari:**

- "O'zbekiston tarixi" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

"O'zbekiston tarixi" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

**Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:**

**“Mustaqil O’zbekiston dagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari” moduli** bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Maxsus fanlar bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

- O’zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lini;
- O’zbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari;
- Respublikani yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini;
- O’zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy ta’limoti – tarqqiyotning o‘zbek modeli ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, bu boradagi yutuqlar, istiqbol rejalar, maqsad va vazifalari bilishi kerak.

**Tinglovchi:**

– O’zbekiston jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri, Vatanimiz naqadar qadimiylari va boy tarixga ega ekanini, bu tarixning yaratuvchisi, uning haqiqiy egasi ham shu zaminda yashayotgan xalq ekanini anglab tarixiy tafakkurga ega bo‘lish, tarixiy haqiqatni bugungi kun bilan solishtirish, tahlil qila bilish;

-o‘z ona yurtini dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb bilish va undan g‘ururlanish hissiga ega bo‘lish va buni o‘zining amaliy ishlarida namoyon etish;

-ajodlarimizning tarixiy merosni o‘qib-o‘rganish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

-tarixiy voqealar va hodisalarini taqqoslash orqali ulardan o‘zi, jamiyat uchun muhim xulosalar chiqarish, bugungi erkin va ozod hayotning qadriga yetish;

-jamiyat taraqqiyotida xalqning, siyosiy yo‘lboshchilarning o‘rnini va ahamiyati naqadar katta ekanini anglab, ularga haqqoniy baho berish, aksincha turli xavf-xatarlarning bu boradagi zararini tushuntira bera olish, tarixiy misollar asosida ma’rifiy targ‘ibot yuritish, xalqning saviyasini oshirishga intilish;

-tarixiy voqealar va hodisalar bo‘yicha og‘zaki va yozma nutq orqali, adabiy til qoidalari asosida o‘z nuqtai nazarini erkin ifoda etish, ilmiy asoslangan, mustaqil fikriga ega bo‘lish va ularga ongli munosabat bildira olish malakalariga ega bo‘lishi zarur.

**Tinglovchi:**

-O’zbekistonda olib borilgan islohotlarning nazariy konseptual masalalarini;

-O’zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, uning mazmun va mohiyatini;

-Iqtisodiy islohotlar, uning bosqichlari;

-Mustaqillik yillarda tarix fanida amalga oshirilgan tadqiqotlarda innovatsiya va yangiliklarning amalga oshirilishi va uning ahamiyatini tahlil qila olish kabi kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

| Modul mavzulari  | Hammasi | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat |   |         |                           |
|--|---------|--------------------------------------|---|---------|---------------------------|
|  |         | Auditoriya o‘quv yuklamasi           |   |         |                           |
|  |         | Jumladan                             |   | Nazariy | Amaliy<br>mashg‘ul<br>ot  |
|  |         | Jami                                 |   |         | Ko‘chma<br>mashg‘ul<br>ot |
| 1. XX asr 80 yillarda sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O‘zbekistonga ta’siri.  | 2       | 2                                    | 2 |         |                           |
| 2. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.  | 2       | 2                                    | 2 |         |                           |
| 3. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallahushi.  | 2       | 2                                    |   | 2       |                           |
| 4. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.  | 2       | 2                                    |   | 2       |                           |
| 5. Mamlakat iqtisodiyotini moder-nizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash.  | 2       | 2                                    |   | 2       |                           |
| 6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. | 2       | 2                                    | 2 |         |                           |
| 7. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.  | 2       | 2                                    |   | 2       |                           |
| 8. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.   | 2       | 2                                    | 2 |         |                           |
| 9. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor   | 2       | 2                                    |   | 2       |                           |

|    |  |    |    |   |    |
|----|--|----|----|---|----|
|    | yo‘nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.  |    |    |   |    |
| 10 | O’zbekistonda chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanishi. | 2  | 2  | 2 |    |
|    | <b>Jami:</b>   | 20 | 20 | 8 | 12 |

## NAZARIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu:** “XX asr 80 yillarda sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O’zbekistonga ta’siri. (2 soat)

**Reja:**

1. XX asr 80 yillarda sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O’zbekistonga ta’siri.
2. “Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar.

**2-mavzu:** O’zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. (2 soat)

**Reja:**

1. Siyosiy islohotlarning boshlanishi.
2. Milliy davlat tizimining barpo etilishi, boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi.
3. Jamiatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining roli.
4. Fuqarolik jamiatini rivojlantirish yo‘lidagi harakatlar.

**3-mavzu:** 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi. (2 soat)

**Reja:**

1. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.
2. Jamiat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va isloh qilish.
3. O’zbekiston iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan davlatlar qatorida.
4. 2017-2020 yillarda O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va istiqbollari.

**4-mavzu:** Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari. (2 soat)

**Reja:**

1. Qonun ustivorligini ta'minlashning ahamiyati.
2. Sud – huquq tizimini isloq qilish zaruriyat
3. Tizimdagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari

**AMALIY MASHG'ULOTLAR**

**1-mavzu:** O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallahushi.

**(2 soat)**

**Reja:**

1. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallahushi.
2. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bos-qichlari va xususiyatlari.
3. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilining amal oshirilish mexanizmi.

**2-mavzu** Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. **(2 soat)**

**Reja:**

1. Ijtimoiy siyosatning mohiyati va uning jahonda qo'llanilish uslublari
2. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi
3. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining bosqichlari va rivojlantirilishi

**3-mavzu.** Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash. Erishilgan yangi marralar. **(2 soat)**

**Reja**

1. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi
2. O'zbekistonda bank-moliya tizimini mustahkamlanishi

**4- mavzu.** Davlat va jamiyat o'rtaсидаги muvozanatni ta'minlash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish. **(2 soat)**

**Reja**

1. Davlat va jamiyat o'rtaсидаги muvozanatni ta'minlash
2. Davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.

**5 – mavzu.** Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar **(2 soat)**

### **Reja**

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar

**6 – mavzu.** O’zbekistonda chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanishi (**2 soat**)

### **Reja**

1. O’zbekiston tashqi siyosatidagi yangi yo‘nalish va uslublarning qo‘llanilishi
2. Millatlararo hamkorlik va hamdo‘stlikning mustahkamlanishi

## II. INTRYeFAOL TA'LIM MYeTODLARI

### “SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Ana’naviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

|  |   |   |
|--|---|---|
|  | Oddiy ma’ruzada ma’ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko‘p ma’lumot bera oladi  | Muammoli ma’ruzada kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi                         |
|  | O’qituvchi asosan o‘zi va a’lochi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi              | Muammoli ma’ruzada ko‘p sonli talabalar, tinglovchilar qamrab olinadi   |
|  | Oddiy ma’ruzada faqat o‘qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gapashiladi                                   | Muammoli ma’ruzada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g‘oyalar tuhilishi mumkin. |
|  | O’qituvchi uchun asosiy to‘siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati | Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga intilishlari burishga                   |

## **Rezyume, Veer metodidan foydalanish**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.

### **Методни амалга ошириш тартиби:**



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гурухларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гурухга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма



ҳар бир гурух ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча гурухлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади ва

### **Namuna:**

| Falsafadan malaka talablari |            |                      |            |                                 |            |
|-----------------------------|------------|----------------------|------------|---------------------------------|------------|
| Sobiq standartlar           |            | Amaldagi standartlar |            | Takomillashtirilgan standartlar |            |
| afzalligi                   | kamchiligi | afzalligi            | kamchiligi | afzalligi                       | kamchiligi |
|                             |            |                      |            |                                 |            |
| <b>Xulosa:</b>              |            |                      |            |                                 |            |

## “FSMU” metodidan foydalanish

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligi fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### Namuna.

**Fikr:** “Falsafadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


## Venn Diagrammasi metodidan foydalanish


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruhi a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarining umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarining kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: Falsafani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlari o‘ziga xosliklari**





Ўқув жараёнида муаммолар ва муаммоли вазиятларни ечишга йўналтирилган интерфаол методлар

“SWOT-универсал таҳлил”

“Дебат”,

*Муаммоли вазият яратиши*

“Резюме”,

“Т-чизмаси”,

“Венн диаграммаси”,

“Органайзер”,

Ҳар хил чизмалар, жадваллар ёрдамида амалга ошириладиган интерфаол методлар:

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### **1-MAVZU. XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O’zbekistonga ta’siri.**

XX asr 80 yillarida sovet davlati mamkakatlari ijtimoiy-siyosiy murakkab jarayonni boshidan kechirayotgan edi. 80 yillarning birinchi yarmi vatanimiz tarixidagi eng murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan mehnatkashlarning fidokorona mehnati tufayli Respublika iqtisodiyoti rivojlandi. Ikkinci tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotda muammolar, noxush holatlar to‘planib borib pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi. Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish batamom to‘xtab qolmagan bo‘lsada, siljish suratlari tobora pasayib sekinlashib bordi. Biroq 1980-yilda ijtimoiy hayotda iqtisodiyotni qayta qurish demokratik jamiyatni yaratish uchun urinishlar bo‘ldi. Bu urinishlar natijasida jamiyatda biroz bo‘lsada boshqaruv respublika ixtiyoriga berildi. Demokratlashgan jamiyat vujudga kela boshladi, korxona va tashkilotlarda 1-mavzu: XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O’zbekistonga ta’siri. (2 soat) Reja: 1. XX asr 80 yillarida sovet davlatidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulining O’zbekistonga ta’siri. 2. “Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar. 25 xo‘jalik mustaqilligi kengaytirildi, boshqaruv apparati qisqardi va shu kabi bir qator o‘zgarishlar jamiyatning barcha qatlamlariga yetib bormadi va konservativ kuchlarning qarshiligiga duch keldi. Jamiyatning siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuzaga kelgan inqirozli holatning sabablari va ildizi fikrlashning orqada qolganligida, muayyan tarixiy sharoitga yetarli siyosiy baho bera olmaganlikda edi. Ijtimoiy munosabatlar mehnatni rag‘batlantirish tizimining buzilishi oqibatida murakkab vaziyat vujudga keldi. Malakali mehnatga haq to‘lamasdan kamsitildi. Barcha ishchilar misol uchun vrach va sanitar bir xil maosh olardi. Natijada aholining mehnatga bo‘lgan qiziqishi pasayib bordi bu esa unumning pasayishiga olib keldi, mazkur holat yillar davomida o‘sib bordi mahsulot tanqisligini keltirib chiqardi. Bu holatni biz nafaqat ishchilar haqqi masalasida balki jamiyatning har bir ko‘rishimiz mumkin. Jumladan sog‘liqni saqlash va xalq maorifi sohalarida ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Davlat budgetidagi mablag‘ bu o‘z navbatida ushbu sohalardagi moddiy texnik bazasining eskirishiga, ta’lim jarayonini va aholining tibbiy yordam olishining yomonlashuviga olib keldi. Yurtimizda yosh avlod ta’lim olishi uchun o‘quv qurollari u yoqda tursin hatto o‘quv muassasalari ham yomon ahvolda edi. Respublikadagi 9000 ga yaqin maktablarning atiga 40 foizi maktab uchun mo‘ljallab qurilgan binolar qolganlari esa moslashtirilgan binolarda o‘qirdi. Ko‘plari avariya holatida edi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi ikkinchi yoki uchinchi smenada o‘qirdi. O‘quvchilarning yiliga 2-3 oy lab qishloq xo‘jaligi ishlari bilan bandligi o‘quv ishlarini ishdan chiqarar edi. Kadrlar tayyorlashda ham faqat son izidan quvilib sifat esdan chiqdi. Milliy tahqirlash va kamsitish ayniqsa, kadrlar siyosatida yaqqol ko‘zga tashlanardi. O’zbekistonagi respublika, viloyat, shahar va tuman partiya va sovet tashkilotlarining rahbar hodimlari, bo‘lim boshliqlari Moskva “nomenktatura”sida bo‘lib, KPSS Markaziy Komiteti tomonidan tayinlanar edi. Mahalliy rahbarlar faqat nomiga qo‘yilgan asosiy ish 26 mahalliy rahbar bo‘lmagan ikkinchi rahbar qo‘lida edi. Kadrlar tanlashda O’zbekistonning hech qanday o‘rn ni roli bo‘lmagan. Bu haqidagi quyidagi I. Usmonxo‘jayevning iqrori nihoyatda ahamiyatlidir: “Bir so‘z bilan aytganda, hamma narsani markaz hal qilardi. U

nima desa, shu bo‘lardi. Hattoki obkomning bo‘lim boshlig‘idan tortib, raykomning birinchi kotibigacha Moskva ixtiyorida turardi. Moskva topshirig‘iga ko‘ra 40 yoshdan oshgan kishi raykomning birinchi kotibi, 50 yoshdan oshgan kishi esa obkomning birinchi kotibi bo‘la olmasdi. U har qancha ishbilarmon bo‘lsin, baribir Moskva uning nomzodini o‘tkazmasdi”. Kadrlarni tanlash ish o‘rinlariga va lavozimlarga qo‘yishda xodimning ish qobiliyatni, ishbilarmonligi, saviya darajasi, o‘z sohasining chuqur bilimdonligi va kasb mutahassisligi kabi zarur belgilar hal qiluvchi rol o‘ynamasdi. Balki hodimlarning rus tilini qay darajada bilishi, Markazga shaxsan sadoqatliligi va “baynalminalligi” hisobga olinar edi. Mustamlakachilik va milliy tahqirlash siyosatining yorqin ko‘rinishlaridan biri O‘zbekiston KP MQning 1984-yil iyunida bo‘lib o‘tgan XVI Plenumidan so‘ng Markazdan respublikaga yuborilgan “kadrlar desanti” bo‘ldi. Bu hodimlar O‘zbekiston Kompartiyasining faoliyatiga musaffo oqim baxsh etmoqdalar, eng yirik partiya tashkilotlarining tajribasini jamlab, undan foydalanishga yordamlashmoqdalar” deb maqtanar edi I.Usmonxo‘jayev O‘zbekiston KPsining XXI sezdidagi hisobat ma’ruzasid. Bu “desantchilar” respublikada sovet, huquq targ‘ibot idoralarda rahbarlik lavozimlarida ishladilar va “layoqatsiz” kadrlar o‘rnini egalladilar. Xuddi shu jarayon O‘zbekistondan ham Rossiya Federatsiyasiga xodimlar “rejali” jo‘natilgan. Ammo Markazdan kelgan xodimlar faqat rahbar lavozimlariga joylashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekistonlik kadrlar faqat qora mehnat zonalarida ishlish va ish o‘rganish uchun yuborilgan. O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1973-yilda “Ko‘chirma oilalar uchun yengilliklar” to‘g‘risida mahsus qaror ham qabul qilgan. Ushbu qarorga asosan har bir ko‘chirma oilada albatta ikkita odam ishga yaroqli 27 bo‘lishi kerakligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari yolg‘iz mehnatkashlarni ham Rossiyaning turli viloyatlariga rejali yuborish O‘zbekiston viloyatlari zimmasiga yuklandi. 1987 yilga qadar O‘zbekiston Rossiyaning noqoratuproq zonasini va Sibir hududlariga jami bo‘lib 30 ming fuqaroni jo‘natdi. Ko‘chiriluvchilar soni yildan yilga oshib bordi. Jumladan, oilasizlar 1981-yilda 4124 bu ko‘rsatkich 11099 kishiga yetdi. Demak bu jarayon yanada jadalashdi, O‘zbekistonlik ishchilar yerlarni o‘zlashtirish, qurilish ya’ni turar-joy binolarini qurdilar. Shunday sharoitda savol to‘g‘iladi O‘zbekitonda malakali kadrlar yo‘q edimi yoki Rossiyada ishchi kuchi mavjud emasmidi? Bu say-harakatlarning tub zamirida boshqa g‘oya yotar edi u ulug‘ davlatchilik shovinizm siyosatining tarkibiy qismi sanalib, u kichik millitlarni assimilyasiya qilib yuborishdan iborat bosh maqsadga xizmat qiladi. Shovinizm siyosatining barcha ijtimoiy siyosiy jabhalarda ta’siri keng ko‘lamli va u xalq yashash sharoitini yanada og‘irlashtirib borgan. Buni biz xususan qishloq xo‘jaligi sohasida ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin.Demak qishloq xo‘jaligida sifat ko‘rsatgichlari yildan yilga pasayib bordi. Mehnatkash aholi o‘z mehnatiga yarasha haq olmaganligi sababli mehnat layoqati pasaydi. Markaz borgan sari paxta buyurtmasini oshirib bordi, lekin aholiga to‘lanadigan haq kamligicha qolaverdi. Qishloq oilasining har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan oylik daromad Rossiyada 98,1 so‘mni tashkil etgan bir paytda, O‘zbekistonda o‘z tamorqasidan tushadigan daromad bilan birgalikda hisoblanganda 58,9 so‘mga teng bo‘lgan. Natijada O‘zbekiston xalqining turmush darajasi pasayib, SSSR mintaqasida oxirgi o‘rinnarga tushib qoldi. Bundayin ijtimoiy larzalarda xalqimizning o‘ta qiyinchilik bilan hayot kechirgan shunday alamli sharoitda sho‘rolar xalqining o‘zligini, tilini yo‘q qilib rus bo‘lmagan millatlarni umuman millat sifatida tobtab assimilyasiyani amalga oshirgan. Bu jarayon, xususan KPSS XXII sezdining “ Kommunizm qurish” dasturi qabul qilingach,

bevosita kun tartibiga qo‘yildi. SSSRda “sotsializm to‘la va uzil kesil g‘alaba” qilgach, 28 bevosita SSSR xalqining yangi tarixiy birligi sovet xalqi paydo bo‘ldi. Bu birlik: “Yagona Vatan-SSSR; “Yagona til-rus tili”; “yagona maqsad kommunizm”; “Yagona mafkura-marksizm leninizm” ga asoslanadi, degan g‘oyalardan kelib chiqib, “Yagona xalq-sovet xalqi”; “Yagona pasport-Sovet pasporti” qoidasini ilgari surishgacha borib yetdilar. “Baynalminal tarbiya” bayrog‘i ostida, sistemali sur’atda, 70-yidan ortiq vaqt mobaynida xaspo‘shab olib borildi. Demak bu g‘oyalarning asl maqsadi millatning o‘zligini yo‘q qilish xalqni sovet xalqiga aylantirish edi. Barcha davlat idoralarida hujjat rus tilida olib borilishi odat tusiga kirdi. O‘zbek tili o‘z yurtda ikkinchi darajali tilga aylandi. Misol uchun 1970-yilda kitob, gazeta va jurnallar 1-million nusxada chop etilgan bo‘lsa, shundan 600 ming (60%) nusxada rus tilida u faqat 300-400ming (30-40%) o‘zbek tilida edi xolos. Holbuki, o‘zbeklar O‘zbekistonda 73 foizdan ortiqni tashkil etgan. Bu mustaqillik e’lon qilinishi arafasida Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida o‘rganish jarayonida ijtomoiy hayotning barcha sohalarida sof shovinistik mustamlakachilik siyosati olib borilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Xalqimizning juda boy tarixi uning madaniyati, o‘ziga xos noyob xususiyatlarni bilmagan va bilishni ham xoxlamagan kelgindilar mahalliy xalqning urf-odatlari, an’analarni oyoq osti qildilar. Xalqimizning boy madaniyati va ma’naviy qadriyatları kamsitildi. Milliy libos kiyish qoloqlik deb baholandi. Milliy an’analarni bo‘yicha to‘y qilgan, qarindosh urug‘larini milliy va diniy qadriyatlar asosida dafn qilganlar tanqid ostiga olindi, shavqatsiz jazolandi. Bu qadar xo‘rlashlar xalqimizning sabr kosasini to‘ldirib bordi. Siyosiy va mafkuraviy zug‘umlarga qaramasdan ijtimoiy ong o‘zgara boshladi. O’tmish va hozirgi zamon muammolari to‘g‘risida munozaralar, turli qarashlar, nuqtai nazarlar bildiriladigan bo‘ldi. Jamoatchilik paxta yakkahokimligini tugatish, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ekologik holatni sog‘lomashtirish kabi masalalarni ko‘tara boshladilar. 29 O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida kitobini o‘rganish bo‘yicha o‘quv –uslubiy qo‘llanmada ijtimoiy-siyosiy jarayon mustabid tuzumdan qolgan og‘ir meros haqida aytib o‘tilgan. — Mustabid tuzumning repressiv siyosati oqibatlari — Yertangi kunga ishonchsizlikning ortishi — Ozgina uchqun chiqsa, lovullab yonib ketish mumkin bo‘lgan vaziyat — Hukmron repressiv siyosat — Mustabid mafkura kuchning saqlanishi — Keng tarqalgan qo‘rquv va vahima — Xalq kayfiyatdagি tushkunlik. — Mustabid tuzumdan qolgan og‘ir meros — Sog‘liqni saqlash ishlarda o‘ta ayanchli ahvol — Oddiy ichimlik suvi bilan taminlanmaganligi — 9 million kishining daromadi eng zarur darajadan ham pastligi — 60 foiz ijtemoiy infratuzilmaning nobopligi — Bir millionga yaqin ishsiz mavjudligi — “Paxta ishi”-tuxmat, tazyiq, taqib nohaq qamalishlar. Xalqmizni o‘z girdobiga olayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotni isloh qilish o‘z o‘rnini o‘tab bo‘lgan mustabit tuzumdan voz kechish, rivojlangan davlatlar tajribasini har tomonlama o‘rganish, millatmizning asriy qadriyatlarni urf-odat va boy an’analarni yanada mustahkamlash zaruriy jarayon edi. “Paxta ishi” qatag‘onlariga barham berish borasidagi amaliy harakatlar. 1983 yildan boshlab sobiq KPSS Markaziy qo‘mitasi rahbarligida O‘zbekistonda navbatdagi oshkora qatag‘onga yo‘l ochildi. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi”, “Sharqiy front” deb atalgan mash‘um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Moskva yuborgan 30 generallar, prokurorlar, tergovchilar istagan odamlarni hibsga olishardi. Ma’shum nomlar bilan atalgan kompaniyavozlik davrida yo‘l qo‘yilgan xatolar, poraxo‘rlik qo‘shib yozish,

mansabni suiste'mol qilish kabi illatlar ochib tashlandi. Biroq bu nuqsonlar sobiq Ittifoqqa, mavjud chirigan tuzumga qolaversa Markazga ham tegishli edi. XX asrning so'nggi choragiga kelganda o'zida butun boshli xalqlar va millatlarni birlashtirgan sobiq Ittifoq hududida iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kela boshladi. Ittifoqqa kiruvchi davlatlar fuqorolari ongida mustaqillikabo'lган intilish va harakat paydo bo'lib, o'sib bordi. Bu holat ayniqla Boltiqbo'yи davlatlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Tabiiyki Ittifoq hukumati bunday intilish va harakatlarga toqat qila olmas edi va bor imkoniyatini ishga solib, zo'ravonlik bilan bo'lsa ham bu harakatlarni to'xtatishga kirishdi. Ittifoq rahbarlari fikricha, bu harakatlarni to'xtatish uchun butun boshli xalqni o'z domiga tortuvchi siyosat ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq etish mo'ljallangandi. Aynan mana shu siyosat natijasida "paxta ishi", "o'zbek ishi" degan uydirmalar paydo bo'ldi va o'zbek xalqiga nisbatan bu siyosat amalga oshirildi. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Nega aynan "o'zbek ishi", "latish ishi" emas, "gruzin ishi" yoki "arman ishi" emas? Tarixchi tadqiqotchilar fikrlariga ko'ra, bu paytda Boltiqbo'yи davlatlarida huquqiy ong anchagina o'sganligi, shuningdek bu hududdagi davlatlar Ittifoq hududiga nisbatan kechroq kirganliklari va Yevropa davlatlari andozasidaliklari sababli, bu hududga nisbatan bunday siyosat yurgizishdan tiyildilar. Kavkaz hududlarida esa bu siyosat natijasida qurolli qo'zg'alon kelib chiqishi mumkin edi. Aynan shularni inobatga olgan holda Ittifoq hukumati O'rta Osiyo hududini tanladiki, bu hududda yashovchi xalqlardan nisbatan ko'prog'i, ya'ni o'zbek xalqi bu siyosatni yuritishga ular uchun har tomonlama ma'qul kelardi. Shu siyosat bilan ular butun Ittifoq davlatlaridagi noroziliklarni to'xtatmoqchi bo'ldilar. O'zbekiston SSR mamlakatning asosan xomashyo yetishtirib beradigan mintaqasi hisoblangani sababli respublika qishloq xo'jaligi rivoji boshqa ittifoqdosh 31 respublikalarga nisbatan ancha og'ir, ziddiyatli jarayonlar ta'sirida qoldi. O'ta markazlashtirilgan boshqaruv, "umumxalq manfaatlarini" ro'kach qilib olib borilgan siyosat O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligini, shu sohada band bo'lgan aholining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini ham nihoyatda og'irlashtirib yubordi. O'rta Osiyo, ayniqla O'zbekiston qishloq xo'jaligining "Paxta" xomashyo kompleksi atrofida rivojlantirishi XX asrning 80 yillarda o'z salbiy ta'sirini ko'rsata boshlagan edi. Yillar davomida partiyaning paxta hosildorligini oshirish uchun ketma – ket berib kelgan besh yillik rejalar yerlarning chala o'zlashtirib, belgilangan vaqtda "topshirishga", yerning meliorativ holatini buzilishiga, ketma - ket bir xil ekinlar yekib, katta miqdordagi sarf - harajat qilinishiga sabab bo'la boshladi. Biroq, bu sarf – harajatlar o'zini oqlamas, markaz esa besh yillik paxta planini bajarishni qatiy turib talab qilar edi. Natijada olinadigan real daromad to'liq bo'lmas, buyruqbozlik, qattiq nazorat, tazyiq o'tkazish kuchayib borar, kamomad, o'g'rilik, ichki nazorat va hisob - kitobning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi ortib borar edi. Bu holatlar butun mamlakatda qo'shib yozish degan illatlarni kuchaytirib yubordi. X.Yunusovaning ilmiy tadqiqot ishida ta'kidlanishicha, SSSR FA olimlari o'tkazgan hisob - kitoblarga ko'ra, qo'shib yozishlar butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3 foiziga teng bo'lgan. Xomashyo yetkazish sohalarida esa, qo'shib yozishlar 5 foizdan 25 foizgacha bo'lgan. Mamlakat iqtisodiyotidagi holatlar boshqa ittifoqdosh respublikalarda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, 1977 yilda Belorussiya SSRda qo'shib yozishga yo'l qo'yilganligi uchun 1075 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Tojikiston SSRning Leninobod viloyatidagi qurilish tashkilotlarida 1983 - 1984 yillarda 700 ming rublik qo'shib yozishga yo'l qo'yilganligi aniqlangan. Ozarbayjon SSRda esa 1983 yilning o'zida 667 sanoat korxonasi

va qurilish tashkilotlarida qo'shib yozishga yo'l qo'yilgan. Moldaviyada yesa qo'shib yozishlar nihoyatda avj olgan bo'lsa-da, kishilar tobora ko'proq mansab kursilarini egallab borganlar. O'zbekiston mamlakatning asosiy paxta xom ashyosi bilan ta'minlovchi mintaqasi 32 bo'lganligi sababli qo'shib yozishlar illati "rivojlangan" joy O'zbekiston deb qaraldi va qo'shib yozishlarga qarshi mamlakat miqyosida katta harakatlar boshlanib, O'zbekiston birinchi nishonga olingan respublikalardan bo'lib qoldi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, darhaqiqat xalq xo'jaligidagi qo'shib yozishlar O'zbekistonda mavjud bo'lib, aksariyat hollarda kolxoz va sovxozlarning mansabdor shaxslari tomonidan qo'shib yozishlar paxta tozalash korxonalarining tayyorlov tashkilotlariga tayyorlanmagan va topshirilmagan paxtani topshirildi deb tovarsiz fakturalarni tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan. Bunday qo'shib yozishlarga kolxoz va sovxozening brigadasida, bo'limida tuzilgan, ichki xo'jalik hisobga olish ma'lumotlari, so'ngra zavod paxta punktining tovarsiz yozilgan, bir tomonidan – kolxoz va sovxozenidan, ikkinchi tomonidan – paxta tozalash sanoati korxonasi tomonidan rejaning bajarilganligi to'g'risidagi davlat hisoboti ko'rsatilgan ma'lumotlarni balanslashtirgan tovarsiz kvitansiylar asos qilib olingandi. Zavod direktori va buxgalteri ushbu ma'lumotlardan rejani bajarishgani to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini oshirish uchun foydalanishgan va ularni respublika paxta tozalash sanoati vazirligiga hamda statistika boshqarmasiga topshirganlar. O'zbekiston janubidagi Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy yo'nalichlari ham paxtachilikka ixtisoslashgan bo'lib, paxtani qayta ishslash Qashqadaryoda 51 foizga teng bo'lgan. "Paxta ishi", "qo'shib yozishlar" masalasi ham aslida 1983 yilda boshlangan. O'z Kompartiya MQsining XVI Plenumi va unda Inomjon Usmonxo'jayevning Markazdan O'zbekistonga kadrlar bilan "yordam berish"ni so'rab qilgan murojatidan so'ng bu ish avj oldi. O'zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bular – Anishchev, Ogarok, Klepikov, Satin, Nesterenko, Buturlin, O.Gaydanov, E.Didarenko, Lyubimov, Kalinichenko, Korolyov, Maydanyuk, Mavrin, Litvinenko, Ivanov, Galkin, Kartashyan va boshqalardir. "Paxta ishi" bo'yicha juda ko'p guruhlar tashkil qilindi. Mahalliy xalqnig "harakter va psixologiyasi"ni yaxshi bilgan jallodlar bu guruhlarga tub yerlik prokuror va tergovchilarni bosh qilib, ularga "yaxshi konsultatsiya"lar 33 berdilar va shu tariqa sopini o'zidan chiqardilar. Yuqori saviyada "maslahat" olgan guruh a'zolari amaliy ishga tushib ketdilar. Ular 70-80-yillarda mamlakatda keng tus olgan qo'shib yozishlar bo'yicha jinoyatchilarni aniqlab berishlari kerak edi. Haqiqatan ham shu yillarda paxta, chorva va boshqa sohalar bo'yicha qo'shib yozishlar davlat rejalarini sun'iy ravishda bajarish usuli bo'libgina qolmay, millionlab so'm davlat mablag'larini suiste'mol qilish va talon-taroj etishning sinalgan usuli edi. Poraxo'rlik avjiga mingandi. Bunday qo'shib yozishlar, poraxo'rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o'zi bo'lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo'jaligi direktorlari, jamoa xo'jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalari va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog'liq edilar. O'zbekiston janubida shu jumladan, Qarshi cho'li, Surxon – Sherobod cho'llarini o'zlashtirib, Respublikaning janubida joylashgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan XX asrning 80 - yillariga kelib, o'rtacha 1 million tonna paxta yetishtirish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Gektaridan olinishi lozim bo'lgan hosildorlik yildan - yilga ortib borib, uni bajarishning iloji bo'limgandan keyin, qo'shib yozish degan bir illat paydo bo'ldi. Markaz o'ylab topgan "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" siyosatining asorati XX asrning 80-yillaridan boshlab Qashqadaryoda yaqqol ko'zga

tashlandi. Birgina 1981-83 yillarda Qashqadaryoda halol mehnat qilib obro‘ topgan mashhur kolxoz raislari, sovxozi direktorlaridan, viloyat rahbarlari 36 kishi ishdan bo‘shatilib, ma’muriy yo‘l bilan jazolandı. Ular orasida shahrisabzlik mashhur raislar A.Turopov, Qurbonov, sovxozi direktori N.Sharopov, Kasbi rayon xalq kontroli qo‘mitasinig raisi Ziyod Arabov, O’zbekiston KP Bahoriston tuman qo‘mitasining ikkinchi kotibi R.Suyarov, Qarshi tuman paxta tozalash zavodi direktori Tohirovlari bor edi. Mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sohadagi inqiroziy holatlar, avvalo, sovet hukumatining ma’muriy-buyruqbozlik siyosati natijasi ekanligini tergov guruhi mutlaq anglab yetmas edi. Shahrisabz tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi X.Xoliqov S.Jo‘rayev bilan birgalikda 34 4.651.000 ming so‘m pulni paxtaga qo‘shib yozish hisobiga pora sifatida olganliklarida ayblanganlar. Aslida, bu miqdordagi pulning 3.100.000 so‘mi Serpuxovo, Kutaisi, Boku, Orexovo-Zuyevo va boshqa shaharlardagi to‘qimachilik korxonalariga qabul qilinmagan xomashyo uchun pora sifatida berilgan edi. Shahrisabzdagi engels nomli kolxoz raisi Suvonovning so‘roq vaqtida bergen ko‘rsatmalarida bunday deyiladi; “Bizning kolxozimiz 1983- yil noyabr oylari boshida paxta tayyorlash rejasini bajardi. O’sha vaqtdagi obkomning ikkinchi kotibi Golovachev tumanimizda vakil edi. U menga paxtani qo‘shib yozishni taklif etdi. Men unga kolxoz yillik rejani bajarganini, dalada esa paxta qolmaganini aytdim. Shundan keyin 8-9 kun davomida Golovachevning ko‘ziga ko‘rinmay yurdim. U baribir meni topib uyatli so‘zlar bilan haqorat qildi. Ikki marta urdi. Men paxtaga qo‘shib yozishga majbur bo‘ldim, paxta zavodi klassifikatoriga 180.000 ming so‘m pul berdim”. Ko‘rinib turibdiki bularning barchasi mahalliy aholi xohishlariga mutlaqo zid ravishda, qo‘pol suratda markaz topshirig‘i bilan amalga oshirilgan. Xulosa qilib aytganda, XX asr 80 yillari boshlarida Ittifoq miqyosida boshlangan ijtimoiy – siyosiy muammolar, uning chekka hududlari O’zbekiston viloyatlarini ham chetlab o‘tmadi. Markazning bu muammolarni mahalliy boshqaruvi idoralarining mas’uliyatsizligi va boshqa sun’iy ayblovlari evaziga haspo‘splash yo‘lidan borishi hamda turl vositalar yordamida respublikada jinoiy ishlarni boshlab yuborishi oqibatida mahalliy aholi va kadrlar qiyonoqlarga duchor bo‘ldi, ularning haq-huquqi poymol etildi. Markaziy matbuotning ba’zi bir mualliflari Kavkaz, O’rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining yuziga qora chaplashga harakat qila boshladilar. Bu hududlarda yashagan millatlar o‘z vaqtida mavjud jinoiy guruhlar faoliyatiga qarshi kurashganlar, ular sotsialistik qonunchilikni buzilayotgani haqida Moskvaga arz qilishgan, biroq ularning o‘zlarini, ya’ni "suvni loyqalatuvchilar" quvg‘inga uchraganlar. 1983 yilning oxirida respublikada juda og‘ir vaziyat vujudga kelgan edi. Birinchidan, 35 jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida sobiq rmarkazdan ketma-ket turli tergov guruhlari tashlandi. Respublikamizdagi rahbarlik lavozimlariga sobiq Ittifoqning bar xil joylaridan kadrlar kela boshladi. O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga Anishchev, Ministrlar Soveti Raisining birinchi o‘ribbosari Ogarok, Oliy Kengash Prezidiumi rayisining o‘ribbosari etib Romanovskiylar tayinlandi, Toshkent shahrining taqdiri Satinga topshirildi. Respublika prokurori etib Buturlin, uning o‘ribbosarligiga Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenko tayinlandi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday bo‘lib, ular respublikadagi hukmronlikni to‘la qo‘lga olgan edilar. “Paxta ishi” va “O’zbeklar ishi” deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi O’zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo‘ravonligi oqibatida

sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi. 1989 yilgacha bu ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ko'proq kishi sudlandi. O'sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo'natildi. Gdlyan guruhi O'zbekiston hududida cheklanmagan vakolatlarga ega bo'ldi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qaraoqqa olisb, jismoniy va ruhiy qiyonoqqa solish avj oldi. Hibsga olingenlar tergov usullariga dosh berolmay o'z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar. O'zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo'natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko'rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning gumashtalariga ketma-ket unvonlar berildi. 1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O'zbekiston fuqarolarining 36 huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi oliyjanob va xayrli ishdan boshlandi. "Paxta ishlari"ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko'rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining rayisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari bat afsil ko'rsatildi. Bu xatda "Paxta ishlari" chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqorida tashkilotlar ko'mak o'rniga tayziqni kuchaytirdilar. Respublika rahbarining qatiyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko'proq vaqt orasida 40 ming tomlik ishni ko'rib chiqdi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatları kamaytirilib, bir qismi Prezidentimiz tomonidan avf etildi. Paxta komissiyasi faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri shundan iboratki, paxta isblari bo'yicha sudlanganlarning ko'pchiligi hayotligida oqlandi, yuzlari yorug' bo'ldi, toptalgan huquqlari tiklandi, o'z ish joylariga qaytishdi, musodara qilingan mulki qaytarilib, boshqa yetkazilgan moddiy zararlar qoplandi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xususan, respublika rahbariyatining qafiyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Minglab begunoh fuqorolarning nomlari oqlandi. KPSS MK Aprel (1985 y) plenumi sovet jamiyatini "qayta qurish", bu jamiyat hayotining barcha sohalarini "chuqur isloq qilish" yo'lini e'lon qildi. Bunda avvalo ijtimoiy hayotni deraokratlashtirish, oshkoraliq, iqtisodiy o'sishni fan texnika yutuqlariga tayanib jadallashtirishga qaror qilindi. Biroq uzoq yillar totalitar rejimga moslashgan davlat monopoliyasi, idoralari byurokratik. apparat ko'zda tutilgan rejalarini amalga oshirishga yo'1 qo'ymadi. 37 80-yillarning o'rtalariga kelib mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilmasdan 90-yillarning oxiriga borib, sobiq SSSR da milliy daromadni 2-2.5 barobar o'stirish, aniqrog'i avvalo 70 yil ichida amalga oshirilgan ishlarni keyingi 15 yil ichida bajarish vazifalari qo'yildiki, bular mutlaqo haqiqatdan uzoq edi. Bu hol tabiiy ravishda 70-80 yillar boshlarida jamiyat oldidagi muhim xalq xo'jaligi vazifalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish bilan emas, balki qo'shib yozish, pora berish, oshna-og'aynigarchilik bilan osongina hal qilishga olib keldi. Davlat rejalarini tizimi murakkab ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan hal qilishga qodir bo'lmay qoldi. Natijada iqtisodiy o'sish har yiliga kamayib bordi. Respublika xalq ho'jaligida umumiy ijtimoiy mehnat unumdarligini pasayishi hisobga mo'ljadagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad olindi. 1989 yilda O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag' to'g'ri keldi Shu davrga kelib respublika qishloq xo'jaligida ko'plab muammolar to'planib

goldi. Sovet tuzumining navbatdagi islohoti ham yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli barbob bo‘ldi.

## **2-mavzu. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lining ijtimoiy tartibga bog‘liqligi.**

O‘zbekiston totalitar tuzumdan, ma’muriy buyruqbozlik va rejali taqsimlash tizimidan voz kechib, zamon talablaridan kelib chiqib taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘lidan rivojlanib bormoqda. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” deb nom olgan ushbu yo‘l besh tamoyildan iborat bo‘lib, uning muhim tamoyillaridan biri iqtisodiyotning mafkuradan xoli va siyosatdan ustuvorligi tamoyilidir. O’tgan tarixan qisqa davrda O‘zbekistonning erishgan yutuqlari va jahon hamjamiyatida munosib o‘ringa ega bo‘lishi tanlangan yo‘lning naqadar to‘g‘ri ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyotini ko‘rsatuvchi eng muhim mezon – bu odamlar kayfiyatining ijobiy tomonga o‘zgarib borishidir, chunki jamiyat taraqqiyoti odamlar hayotini farovon qilishga qaratilgan. Odamlar baxtli yashaydigan farovon jamiyatning muhim belgisi – bu odamlar kayfiyatining yaxshi bo‘lib borishidir. Buni ko‘rsatuvchi mezon – ommaviy axborot vositalari orqali odamlar kayfiyatini ko‘tarishga qaratilgan ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarning ko‘payib borishidir. Oxirgi vaqtarda televideniyeda yaxshi kayfiyat beradigan kulgiga va xursandchilikka chorlovchi ko‘rsatuvlar ko‘paymoqda. Bu, o‘z navbatida, hayotning ijobiy tomonga o‘zgarib borayotganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi, chunki “qorni och odamning qulog‘iga gap yoqmaydi” deganlaridek kayfiyati yomon odama kuliga va xursandchilikka ehtiyoj bo‘lmaydi. Shuning uchun kuliga va yaxshi kayfiyatga chorlovchi ko‘rsatuvlarning ko‘payib borishi hayotning ijobiy tomonga o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatuvchi muhim indikator va mezon deb aytish mumkin.

Inson zoti tabiatan erkin mavjudot bo‘lganligi uchun insoniyat jamiyatni ham mustaqil, erkin va ozod bo‘lishi lozim. Lekin hayot shunday shakllanganki, unda odamlar o‘z erkinliklaridan mahrum bo‘lib qolish holatlari uchrab turadi. Odamlar erkinliklarining poymol qilinishi va mamlakatlarning mustamlakaga aylanib qolishi ko‘pincha urushlar oqibatida yuz beradi. Lokal va global urushlar natijasida mag‘lub bo‘lgan u yoki bu mamlakat kuchliroq davlat ta’siriga tushib, o‘z mustaqilligini qo‘ldan berib qo‘yadi. Urushlarda mag‘lubiyatni keltirib chiqaradigan asosiy sabab – bu siyosiy parokandalikdir, siyosiy parokandalikning sababi esa adolatsizlikdir. Chunki adolatsizlik, albatta, norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Qaysi mamlakatda adolatsizlik, siyosiy parokandalik va norozilik kayfiyati kuchli bo‘lsa, o‘sha mamlakat, ertami-kechmi, o‘z mustaqilligini qo‘ldan boy beradi. Shuning uchun mustaqillikdan ham muhimroq narsa bormi deganda, ha, mustaqillikdan muhimroq narsa bor, bu adolatdir deb aytish mumkin. Chunki inson zoti shunday mavjudotki, u har qanday qiyinchilikka bardosh beradi, lekin adolatsizlikka toqat qila olmaydi. Adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatish vazifasi barcha vaqtarda eng murakkab muammo bo‘lib kelgan.

Tarixga nazar solsak, insoniyat jamiyatni son-sanoqsiz urushlarni boshidan kechirganligini ko‘rish mumkin. Tarixchilar orasida “insoniyat tarixi – urushlar tarixi” degan aforizmning mavjudligi bejiz emas. Olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, butun insoniyat tarixi davomida 14,5 minga yaqin urushlar bo‘lib o‘tgan, ularda 3,6 mlrd.dan ortiq aholi halok bo‘lgan va ko‘plab mamlakatlar o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan boy berib

qo‘ygan. Demak, mustaqillik abadiy fakt emas ekan, ya’ni mustaqillikni qo‘ldan boy berish ehtimoli mayjud ekan. Buni anglagan odam mustaqillikning ahamiyatini chuqurroq anglab oladi va mustaqillikni mustahkamlashga befarq bo‘lmay, daxldorlik hissi bilan yashaydi. Mustaqillikka nisbatan befarq bo‘lmaslik uchun inson nimaga nisbatan befarq bo‘lsa, o‘scha narsani yo‘qotishi mumkinligini bilishi lozim. Agar inson o‘z huquqlariga befarq bo‘lsa, huquqi paymol bo‘ladi, agar inson o‘z salomatligiga befarq bo‘lsa, salomatligiga putur yetadi va, xuddi shunday, inson mustaqilligiga befarq bo‘lsa, mustaqilligini qo‘ldan berib qo‘yishi mumkin.

Mustaqillikka erishish qanchalik qiyin bo‘lmasin, uni asrab qolish va mustahkamlash yanada marakkabroqdir. Mustaqillik inson uchun shunisi bilan muhimki, u insonga baxtli bo‘lishning muhim sharti bo‘lgan erkinlikni ta‘minlashga sharoit yaratadi. Inson baxtli bo‘lishi uchun u nafaqat moddiy va ma’naviy jihatdan ehtiyojlari qondirilgan bo‘lishi, balki unda qo‘rquvsiz, erkin yashash hissi ham bo‘lishi lozim. Inson erkin bo‘lishi uchun u oldin mustaqil bo‘lishi kerak. Lekin mustaqillikka erishgan bilan birdaniga erkinlikka erisha olmaydi, balki mustaqillik insonga erkin bo‘lishga sharoit yaratadi. Ana shu sharoitdan to‘g‘ri foydalana olgan millat o‘z mustaqilligini asrab qola oladi va mustahkamlaydi. Agar milliy mustaqillikka erishilsa-yu, lekin xalqning erkinligi ta‘minlanmasa, bunday mamlakat, ertami-kechmi, o‘z mustaqilligini qo‘ldan boy berib qo‘yadi.

Tarixga nazar solsak, mamlakatlar o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan berib qo‘yganliklariga ko‘plab misollar topish mumkin. Masalan, mamlakatimiz xalqlari XIII asrda mo‘g‘ullar zulmi ostiga tushib, o‘z mustaqilliklarini yo‘qotib qo‘yishgan. Xuddi shunday XIX asrda yurtimiz Rossiya koloniyasiga aylanib, o‘z mustaqilligini qo‘ldan boy berib qo‘ygan. Har ikki holatda ham mustaqillikning qo‘ldan ketishiga mamlakatdagi siyosiy parokandalik sabab bo‘lgan. Har ikki holatda ham yana mustaqillikni qayta qo‘lga kiritish uchun qariyib ikki asr vaqt kerak bo‘lgan. Birinchi holatda, ya’ni mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lib, mustaqillikka ershishimiz uchun qariyib ikki asr kerak bo‘ldi va xalqimizni mustaqillikka olib chiqish ulug‘ bobomiz Amir Temurga nasib bo‘ldi. Ikkinchi holatda, yana mustaqillika ershishimiz uchun qariyib bir yarim asr kerak bo‘ldi va bu safar xalqimizni mustaqillika olib chiqish Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovga nasib etdi. Har ikkala holatda ham mustaqillikka erishish uchun kurashlar va minglab qurbanlar bo‘ldi. Bunday holat takrorlanmasligi uchun mustaqillik abadiy fakt emasligini, ya’ni mustaqillik qo‘ldan ketish ehtimoli borligini unutmaslik va mustqillikni asrab avaylashimiz, mustahkamlashimiz lozim.

Mustaqillik qo‘ldan ketmasligi uchun odamlar mustaqillikdan kutgan orzu-umidlar ro‘yobini va, eng avvalo, erkin yashash imkoniyatini ta‘minlab berish lozim. Inson qo‘rmasdan, erkin yashashi uchun jamiyatda adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Qayerda adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatsa, o‘scha yerda odamlar erkin va baxtiyor bo‘lib yashaydi. Demak, inson baxtli bo‘lishi uchun erkin bo‘lishi kerak, erkin bo‘lishi uchun esa adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Mustaqillik ana shunday adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga sharoit yaratadi. Lekin muammo shundaki, ijtimoiy tartibni o‘rnatish qadimdan donishmandlarni va davlat rahbarlarini o‘ylantirib kelgan eng murakkab muammo bo‘lib kelgan. Hozir ham eng dolzarb va murakkab muammolardan biri

bo‘lib qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, mustaqillik o‘z o‘zidanadolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatmaydi, balki unga sharoit yaratadi, xolos.

Ijtimoiy tartibni o‘rnatish uchun nazorat bo‘lishi kerakligi anglab olingan bo‘lishiga qaramasdan, ana shu nazorat tizimining samarali ishlab turishini ta’minlaydigan mexanizmni shakllantirish qiyin kechmoqda. Jamiyatdaadolatli ijtimoiy tartib o‘matilishi uchun nazorat tizimining samrali ishlab turishini ta’minlaydigan davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo‘lgan mexanizm shakllangan bo‘lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, faqat yuqorida bo‘lgan davlat nazorati ijtimoiy tartibni o‘rnatish uchun yetarli emas, buning uchun jamiyat nazorati ham kerak. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatasi” tamoyili nazorat tizimida davlat va jamiyatning uyg‘unlikdagi nazoratini anglatadi.

Jamiyatning nazorat tizimida ishtirok etishi, eng avvalo, uning kuchli bo‘lishiga bog‘liq. Kuchli fuqarolik jamiyatni kuchli fuqarolik jamiyatni institutlaridan tashkil topadi. Kuchli fuqarolik jamiyatni institutlari esa kuchli fuqarolardan tashkil topadi. Kuchli fuqarolar esa bilim va ma’naviyati yuksak shaxslardan tashkil topadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyasi nazorat ekanligini inobatga olsak, fuqarolarning nazoratga doir bilimlarini oshirish eng ustuvor vazifalardan bo‘lishi lozim. Har qanday bilim ta’lim tizimida shakllangani kabi nazoratga doir bilim ham, eng avvalo, ta’lim tizimda shakllanadi. Shuning uchun ta’lim tizimida nazoratga doir bilimni kengroq berish zamon talabi hisoblanadi. Inson qayerda o‘qishidan qat’i nazar unga nazoratga doir bilim kerak bo‘ladi, chunki u kim bo‘lib va qayerda ishlashidan kat’i nazar nazorat tizimida ishtirok etishi kerak. Nazoratga doir bilimga ega bo‘lgan va uning negizida siyosiy-huquqiy madaniyatni yuksalgan fuqarolargina o‘z nazorat funksiyalarini amalga oshirishga qodir bo‘lishadi. Buning uchun oliy ta’lim tizimida nazoratga doir bilimni beradigan fanlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim tizimida tashkil etiladigan nazoratga doir bilimni beradigan fanlar yoshlарimizni nazoratga doir bilim bilan qurollantirib, oradan ma’lum davr o‘tgach, o‘z nazorat funksiyasini amalga oshirishga va nazorat mexanizmining samarali ishlab turishini ta’minlashga qodir bo‘lgan avlodni shakllantiradi. Bunday nazoratga doir bilimni yoshlarga berish uchun o‘qituvchilarining o‘zida ham nazoratga doir bilim kuchli bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, nazorat mexanizmining shakllanish jarayonini tezlashtirish uchun nafaqat yoshlarga, balki aholining boshqa qatlamlari va, eng avvalo, o‘quvchilarga bilim beradigan o‘qituvchilarining o‘ziga nazoratga doir keng bilim berish kerak. Nazoratga doir bilimni jamiyatda keng targ‘ib qilish adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga qodir bo‘lgan kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishi kuchli nazorat tizimining shakllanishini anglatadi va adolatli ijtimoiy tartibni ta’minlaydi. Adolatli ijtimoiy tartibning o‘matilishi mustaqillikni mustahkamlashning va jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Aholi o‘rtasida nazoratga doir bilimni targ‘ib qilishga befarq bo‘lish milliy xavfsizligimizga bo‘lgan ichki tahdidga bee’tibor bo‘lish bilan tengdir. Bunday tahdiddan himoyalanish uchun faqat yuqorida amalga oshiriladigan davlat nazorati yetarli emas, buning uchun quyidan amalga oshiriladigan jamiyat nazorati ham kuchli bo‘lishi kerak.

Davlat nazorati funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazoratining afzal va muhim ekanligi haqida Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov: “Shuni unutmeylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug‘ullanuvchi

davlat tuzulmalari va organlarini qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzulmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo‘l yo‘q,” – deganida tamoman haqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ijtimoiy tartibning barqarorligiga bog‘liq bo‘lganligi uchun, mamlakatimizda, siyosiy va iqtisodiy islohotlar uyg‘unlikda amalga oshirilmoxda, chunki ijtimoiy tartib, eng avvalo, siyosiy tizimning takomillashganligiga bog‘liq. Yaqin tariximizga nazar solsak, ya’ni 1985 yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda siyosiy islohotlar e’tibordan chetda qolganligi uchun iqtisodiy o‘sishni ta’minlab bo‘lmasan edi. Buni anglagan davlat rahbariyati 1988 yilda siyosiy islohotlarni amalga oshirishga harakat qiladi, lekin buning ham uddasidan chiqa olmaydi. Oqibat hammaga ma’lum, ya’ni dunyoning qudratli mamlakatlaridan biri barham topdi. Siyosiy islohotlardan maqsad iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishning muhim sharti bo‘lgan ijtimoiy tartibning barqarorligini ta’minalashdir.

Mamlakatda ijtimoiy tartib o‘rnatalishi uchun jamiyatni intellektual elita boshqarishi, o‘rtalikta kuchli bo‘lishi va jamyatning ma’naviy yuksalishi muhim omillar ekanligi buyuk donishmandlar tomonidan asoslab berilgan. Mustaqil mamlakatimizda ijtimoiy tartibni o‘rnatishga xizmat qiladigan har uchala omil ham shakllanib bormoqda. Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 18 yanvarda yil yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilishida ta’kidlanishicha, 2000 yilda o‘rtalikta aholining 20%ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2012 yilda 50%ni tashkil qilganligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, ta’lim sohasidagi yutuqlarimiz bilim, ya’ni intellektual elitaning rivojlanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta’lim sohasidagi yutuqlarimiz to‘g‘risida gapirganda, Fransiyaning dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan “Inssad” xalqaro biznes maktabini “Innovatsiyalarning global inqirozi” mavzusidagi ma’ruzasida O’zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishi bo‘yicha 141 mamlakat ichida ikkinchi o‘rinda turganligini e’tirof etganligini aytish mumkin.

Adolat yuzasidan shuni e’tirof etish kerakki, ijtimoiy tartibni o‘rnatishda muhim omil bo‘lgan ma’naviyatni rivojlantirish bilimni rivojlantirish darajasidan biroz orqada qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim-tarbiya tizimida uyg‘unlik to‘liq ta’milanmasdan, tarbiya ta’limdan orqada qolmoqda. Bu global miqyosdagi muammo bo‘lib, uni rivojlantirish uchun Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asaridagi g‘oyalarni odamlar ongiga singdirish choralarini ko‘rish lozim. Bu borada ommaviy axborot vositalarini, eng avvalo, televideniyening imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim. Bundan tashqari, axloqiy tarbiyada ma’rifiy Islom dinining tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki inson ma’naviyati – bu, eng avvalo, inson ruhining sog‘lomligidir, ruh esa diniy tushuncha bo‘lib, uni poklashda diniy tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Diniy tarbiya negizida ma’naviyatni yuksaltirish ijtimoiy tartibning barqarorligini ta’minalashga xizmat qiladigan muhim omilni, ya’ni daxldorlik hissini shakllantiradi. Ijtimoiy tartibni ta’minalash uchun faqat intellektual elita va o‘rtalikta kuchliligi yetarli emas, buning uchun ma’naviyat ham yuksak bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy tartibning barqarorligi ta'minlanmagan joyda va, ayniqsa, bozor munosabatlari sharoitida taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi. O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari yo'lini tanladi va bu bozor munosabatlari sharoitida pul faktori birinchi o'ringa chiqadi, ya'ni qayerda pul bo'lsa, o'sha yer boyib boradi va qayerda pul bo'lmasa, o'sha yer qashshoqlashib boradi. Shuning uchun asosiyligida mamlakatimizga investitsiyani kengroq joriy qilishga qaratilishi lozim. Buning uchun ijtimoiy tartib barqarorligi ta'minlangan bo'lishi lozim, chunki tarix shundan guvohlik bermoqdaki, qayerda ijtimoiy tartib o'rnatilgan bo'lsa, o'sha yerga investorlar ko'proq intilishadi. Ijtimoiy tartib huquq va axloq me'yorlariga rioya qilishning ta'minlanganlik holatidir. Agar huquq va axloq me'yorlariga rioya qilish ta'minlangan bo'lmasa, hech kim, jumladan, investorlar ham o'zini adolatsizlikdan himoyalangan deb his qilaolmaydi. Har qanday odam uchun ham, investor uchun ham, eng muhim, uning huquq va manfaatlari himoyalanganligiga ishonchdir. Bunday ishonch shakllanishi uchun ijtimoiy tartibning barqarorligi ta'minlangan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy tartibning barqarorligi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, uchta omilga, ya'ni jamiyatda intellektual elitaning kuchayib borishiga, o'rta sinfning kuchayib borishiga va, nihoyat, uchinchi omil, ma'naviyatning yuksalib borishiga bog'liq. Bu uch omildan biri, ya'ni ma'naviy yuksalish zamon talablaridan orqada qolmoqda. Buning sabablaridan biri ma'naviy yuksalishni belgilaydigan aniq mezonlarning ishlab chiqilmaganligidir. Shuning uchun bo'lsa kerak, yil yakunlariga bag'ishlangan (2013 yil 18 yanvardagi) ma'ruzada ma'naviy yuksalishni ifodalovchi mezonlar aniq ko'rsatilmagan. Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining vazifalari nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohaning rivojlanishini ta'minlaydigan rahbarlikni, balki ma'naviy yuksalishni ta'minlaydigan samarali rahbarlikni ham amalga oshirishdan iborat. Tashqaridan uncha ahamiyatga ega bo'limganday ko'rindigan ushbu omil, aslida, eng muhim omil bo'lishi mumkin. Shuning uchun ma'naviy yuksalishni baholaydigan mezonlarni ishlab chiqish va ularga asoslanib, ma'naviy yuksalishni baholab borish mexanizimini takomillashtirish lozim. Buning uchun ijtimoiy-gumanitar fan namoyandalari ma'naviy yuksalishni baholaydigan mezonlarni aniqlab berishlari lozim bo'ladi.

Ma'naviyatni yuksaltirish uchun, eng avvalo, uni baholaydigan mezonlarni ishlab chiqish kerak ekan, asosiyligida e'tibor ana shu me'zonlarni ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Xo'sh, ma'naviyatni qanday mezonlar orqali baholash mumkin? Ushbu savolga javob berish uchun ma'naviyatning mohiyatini bilish lozim. Ma'naviyatning mohiyati – moddiy va ma'naviy boylikka bo'lgan munosabatda ma'naviy boylikni ustun qo'ya oladigan qalbiy hususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, ma'naviyatning mohiyati odamning moddiy ehtiyojlari jilovlanganlik holatidir. O'z ehtiyojlarini jilovlagan odam o'z ustidan hokimiyatga ega bo'lgan bo'ladi va bunday hokimiyat ma'anaviyat orqali shakllanadi. O'z ustidan hokimiyatga ega bo'lgan odam o'zini tiyib tura oladi va o'zgalar manfaatini ham ifodalashga qodir bo'ladi. Bu esa mamlakatda o'zaro tiyib turish va manfaatlar mutanosibligining samarali tizimi shakllanishining muhim sharti hisoblanadi. Hozircha ko'pchilik aholi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasida keltirilgan o'zaro tiyib turish va manfaatlar mutanosibligi tamoyilini chuqur anglab olgani yo'q. Vaholanki, ushbu tamoyil ijtimoiy tartibni o'rnatishda muhim ahamiyatga ega, chunki tartib bo'lishi uchun odamlar o'zaro munosabatda bir-birlarining

manfaatlarini inobatga olishlari lozim. Buning uchun esa ular o‘zlarini tiyib turishga qodir bo‘lishlari lozim. Demak, ijtimoiy munosabatlarda o‘zaro tiyib turish va manfaatlar mutanosibligi tamoyili ma’naviyatning rivojlanishini baholaydigan asosiy mezonlardan biri bo‘lishi mumkin.

Ma’naviyatni baholaydigan mezonlardan yana biri – bu mamlakatda ma’naviy boylikka intilishning kuchayib borish darajasidir. Buning uchun, ya’ni odamlar ma’naviy boylikka intilib yashashlari uchun ma’naviyat qadrlanishi lozim. Inson nima qadrlansa, o‘shanga intilib yashaydi, agar jamiyatda moddiy boylik ko‘proq qadrlansa, moddiy boylikka intilish kuchayadi, agar ma’naviy boylik qadrlansa, ma’naviy boylikka intilish kuchayadi. Ma’naviyat qadrlanishi deganda, eng avvalo, ma’naviyat ahlining qadrlanishi tushuniladi. “Ma’naviyat yuksalishi uchun odamlar g‘oyani sevishlari kerak” deb yozgan edi yunon faylasufi Platon. Lekin g‘oyani sevish uchun g‘oya qadrlanishi lozim, ya’ni g‘oya mehnat mahsuli sifatida tan olinishi va qadrlanishi lozim. Oddiy qilib aytganda, g‘oyani moddiylashtirish, ya’ni tovarga aylantirish imkoniyati bo‘lishi kerak. Demak, ma’naviyatni baholashda intellektual mulk tushunchasining shakllanishi va uning rivojlanish darajasi ham muhim mezonlardan biri bo‘lishi mumkin.

Ma’naviyatni baholashda odamlardagi daxldorlik hissining rivojlanishi ham mezonlardan biri bo‘lishi kerak. Chunki ma’naviyati yuksak odamda iroda kuchli bo‘ladi, irodasi kuchli odam esa o‘zidagi befarqlikni jilovlab, daxldorlik hissi bilan yashashga qodir bo‘ladi. Bu mezon ham juda muhim ahamiyatga ega, chunki befarqlik kayfiyati kuchli bo‘lgan jamiyatda nazorat tizimi samarali ishlamaydi, demak, ijtimoiy tartibning barqarorligi ham ta’milanmaydi. Jamiyatdagagi befarqlik va daxldorlik hissining rivojlanish darajasiga qarab ma’navitga baho berish mumkin. Befarqlik kuchli bo‘lgan jamiyatda ma’naviyat past bo‘lsa, daxldorlik hissi yuqori bo‘lgan jamiyatda ma’naviyat yuksak bo‘ladi. Daxldorlik hissining darajasini aniqlashda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasidan kelib chiqish mumkin. Fuqarolik pozitsiyasi fuqarolik jamiyat shakllanishining muhim sharti hisoblanadi. Shu o‘rinda fuqarolik jamiyatining shakllanishida ma’naviy yuksalish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Demak, ma’naviyatni baholashda jamiyatdagagi daxldorlik hissining rivojlanish darajasi ham muhim mezonlardan biri bo‘lishi mumkin.

Odamning ma’naviyatiga baho berganda uning harakatiga qarab emas, balki harkatining ostida yotgan motiviga qarab baho beriladi. Inson harakatining motivi ratsional va irratsional yoki sog‘lom va nosog‘lom bo‘lishi mumkin. Jamiyatda sog‘lom motivli odamlarning ko‘payib borishi ma’naviyatning yuksalib borishini ko‘rsatib boruvchi muhim mezondir. Sog‘lom motivli odamlarning ko‘payishi ijtimoiy sog‘lomlikni ta’minlaydi va bu ijtimoiy sog‘lomlik darajasi ma’naviyatni baholash mezoni bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy sog‘lomlik darajasini aniqlash uchun oldin u nima ekanligini bilish kerak. Ijtimoiy sog‘lomlik deganda, azaldan mavjud bo‘lgan adolat bilan razolat o‘rtasidagi kurashda adolat g‘alaba qozongan muhit tushuniladi. Jamiyatda adolat g‘alaba qozonishi uchun sog‘lom motivli odamlar ko‘payishi lozim. Bu boradagi muammo shundaki, hech kim o‘zini nosog‘lom motivdaman deb hisoblamaydi yoki hech kim o‘zini razolat tomonidaman deb hisoblamaydi.

Motivning sog‘lom yoki nosog‘lom ekanligini aniqlash uchun ikkita savolga beriladigan javobdan kelib chiqish lozim bo‘ladi. Birinchisi, men uchun nima muhim,

moddiy boylikmi yoki ma'naviy boylik? Ikkinchisi, men jamiyatda bo'layotgan voqealarga nisbatan befarqmanmi yoki daxldor hissi bilan yashayapmanmi? Agar inson uchun ma'naviy boylik qadrliroq bo'lsa va u jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi bilan yashayotgan bo'lsa, demak, bu uning harakati motivining sog'lomligi alomatidir. Sog'lom motivli odamlarni tarbiyalashda nafaqat ta'lim-tarbiya tizimidan foydalanish, balki bu borada kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Bunda ommaviy axborot vositalaridan va, eng avvalo, uning samarali ta'sir vositasi bo'lgan televideniye imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim. Bu borada televideniyeda odamlarning motivi sog'lom yoki nosog'lom ekanligini aniqlaydigan "Motiv" nomli ko'rsatuvni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, markaziy televideniyedagi "Madaniyat va ma'rifat" nomli teleko'rsatuvni "Ma'naviyat va ma'rifat" deb nomlash to'g'riroq bo'lar edi. Chunki, madaniyat tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, u ma'naviyat va ma'rifatning uyg'unlikda rivojlanishini taqozo etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Bunda inson hayoti baxtliligining muhim sharti bo'lgan mustaqillikni mustahkamlashga hamda jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan intellektaul elitani va o'rta sinfning kuchayib borishi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Erishilgan yutuqlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish uchun adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishning uchinchi omili bo'lgan ma'naviy yuksaklikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Hadis ilmining sultonni Imom Buxoriyning odamlarning najoti faqat bilimda va undan boshqasi bo'lmagay degan dono so'zlarini davom ettirib, endi odamlarning najoti bilim va ma'naviyatda deb aytish to'g'riroqdir. Chunki Imom Buxoriy zamonidan bugunga qadar o'tgan vaqt davomida insoniyat jamiyatida ma'naviyat qashshoqlashib bordi va natijada axloqsizlikni madaniyat deb tushunish kelib chiqdi. Ma'naviy qashshoqlik nafaqat ijtimoiy tartibga va jamiyat taraqqiyotiga putur yetkazadi, balki, hech qanday mubolog'asiz insoniyatning kelgusida yashab qolishini ham gumon qilib qo'yishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda ma'naviyatni rivojlantirish masalasi, nafaqat gapda, balki amalda eng dolzarb muammo va eng ustuvor vazifa bo'lishi lozim.

### **Muammoli savollar:**

1. Mustaqillikning ahamiyatini inson tabiatan erkin mavjudot ekanligi bilan bog'lagan holda asoslab bering.
2. Mustaqillikka erishish, asrab qolish va uni mustahkamlash bir-biridan murakkab muammo ekanligini asoslab bering.
3. Mustaqillikni mustahkamlashda uning baxtli hayot sharoiti ekanligini anglash qanday ahamiyatga ega?
4. Adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish qanday omillarga bog'liq?
5. Adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishda intellektual elitaning roli nimada?
6. Adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishda o'rta sinf kuchliligining ahamiyati nimada?
7. Adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishda ma'naviyaning o'rni nimada?
8. Insoniyat ma'naviy yuksalishda orqada qolinilayotganligining sababi nimada?
9. Ma'naviy yuksalishni qanday mezonlar bilan baholash mumkin?
10. Nima uchun bugungi kunda ma'naviy yuksalishga ehtiyoj ortib boryapti?

### **3-mavzu. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishining ahamiyati**

O'zbekiston dunyo tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lidan jadal rivojlanib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatasi sari tamoyili asosida fuqarolik jamiyatini shakllantira borib dunyoda o'zining munosib o'rni ega bo'lmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ushbu jarayonni yanada chuqurlashtirish maqsadida mavjud holatni tanqidiy tahlil qilib 2017 yilning 7 fevralida mamlakatni 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni va fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi.

Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarini jadal davom ettirib, fuqarolik jamiyatini kuchli qilish asosida xalq hayotini farovonlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishga xizmat qiladigan quyidagi ustuvor yo'nalishlar, ya'ni davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh etish, iqtisodni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va, nihoyat, beshinchi ustuvor yo'nalish xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari belgilab berildi. Ushbu yo'nalishlarning barchasi oxir oqibatda odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Odam baxtliligining muhim sharti bo'lган ehtiyojlarining to'liq qondirilganlik holati iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sharoitlar yaratilganligiga bog'liq. Harakatlar strategiyasi o'z mazmun mohiyatiga ko'ra odamlar hayotini farovon, baxtli qilishga qaratilgan sharoitlarni yaratishdan iborat.

Insonning baxtliligi uni o'ziga bog'liq bo'lган shaxsiy omillarga va unga bog'liq bo'lman, uni o'rab turgan ob'ektiv dunyoga, ya'ni tabiat va jamiyatdagi tabiiy va ijtimoiy omillarga ham bog'liq bo'ladi. Shaxsiy omil deganda insonning jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan yuksak bo'lib shakllanishiga xizmat qiladigan sog'lom turmush tarzi tushuniladi. Tabiiy omil deganda insonni o'rab turgan va inson yashayotgan sharoitning qulay yoki noqulayligi tushuniladi. Ijtimoiy omil deganda esa, inson yashayotgan jamiyatdagi muhitning sog'lom yoki nosog'lomligi tushuniladi. Inson to'm ma'noda baxtli bo'lishi uchun har uchchala omil ham shakllangan bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda O'zbekiston xalqi dunyodagi eng baxtli xalqlardan biri bo'lishi kerak, chunki O'zbekistonning go'zal tabiatи betakrordir. Bunday guzal yurda tug'ilish va unda yashashning o'zi katta baxt ekanligini unutmasligimiz kerak. Lekin inson baxtli bo'lishi uchun faqat tabiiy omilning o'zi yetarli emas, buning uchun qulay ijtimoiy omil ham bo'lishi lozim. Bunday omil mustaqillik, tinchlik vaadolat qaror topgan muhitdan iborat bo'ladi. Mamlakatimizda hozircha ana shu uch omildan ikkitasi, ya'ni mustaqillik va tinchlik ta'minlangan bo'lib, faqat uchinchi omilni ta'minlash muammosi qolmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevralda tasdiqlangan "2017–2021 yillarda O'zbekistonni besh ustuvor yo'nalish bo'yicha rivojlantirish

Harakatlar strategiyasi” o‘z mazmun–mohiyatiga ko‘raadolat tamoyilining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish”<sup>1</sup> yo‘nalishi baxtli hayotni ta’minlashda muhim ahamiyatiga ega, chunki ushbu yo‘nalishda asosiy e’tibor xalq manfaatini ifodalaydigan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini shakllantirishga qaratilgan. Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan barcha ustuvor yo‘nalishlar aynan ana shu davlat hokimiyatini demokratlashtirish yo‘nalishiga bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, davlat jamiyat manfaatini ifodalashi va hokimiyat xalqqa xizmat qilishi uchun u demokratiya talablari darajasiga munosib bo‘lishi kerak. Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi davlat va jamiyatni demokratlashtirishga qaratilgan. Demokratiya deganda hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishi va nazorat qilinishi tushuniladi. Xalq hokimiyatni nazorat qilishga qodir bo‘lishi uchun u kuchli bo‘lishi kerak va kuchli bo‘lishi uchun esa u birlashgan bo‘lishi kerak. Xalqning birlashganlik holati fuqarolik jamiyati degan tushuncha bilan ifodalanadi va u fuqarolik jamiyati institutlari majmuidan tashkil topadi. Fuqarolik jamiyati qanchalik kuchli bo‘lsa, demokratiya ham shunchalik kuchli bo‘ladi va hokimiyatning xalqqa xizmat qilishi ta’minlanadi.

Shuning uchun Harakatlar strategiyasida demokratiya talablaridan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Fuqarolik jamiyatining kuchliligi demokratik siyosiy tartibotning kuchliligini ta’minlaydi va bu, o‘z navbatida, xalq manfaatini ifodalaydigan hokimiyatni shakllantiradi. Bunday hokimiyatning shakllanishi esa harakatlar strategiyasining boshqa barcha ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi. Chunki qonun ustuvorligini ta’minlash ham, iqtisodiy taraqqiyotga erishish ham, ijtimoiy sohani riojlantirish ham, xavfsizlikni ta’minlash ham bir narsaga, ya’niadolatli ijtimoiy tartibning o‘rnatilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday tartibning o‘rnatilishi esa, demokratik siyosiy tartibotga bog‘liq hisoblanadi. Shuning uchun birinchi ustuvor yo‘nalish demokratiyani takomillashtirish orqali ijtimoiy tartibni o‘rnatishga qodir bo‘lgan hokimiyatni shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, Harakatlar strategiyasining boshqa barcha ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Demokratiyaning kuchliligi fuqarolik jamiyatining kuchliligiga bog‘liq ekan, asosiy e’tibor fuqarolik jamiyati institutlarini kuchli qilish masalasiga qaratilishi lozim. Fuqarolik jamiyati institutlari ichida mahalla instituti alohida ahamiyatiga ega va shuning uchun Harakatlar strategiyasida mahalla faoliyatining samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Fuqarolik jamiyati institulari ichida o‘zini–o‘zi boshqarish organi hisoblanuvchi mahalla alohida o‘rin tutadi. O‘z mazmun–mohiyatiga ko‘ra universal fuqarolik jamiyati instituti bo‘lgan mahalla instituti fuqarolarning xilma xil ehtiyojlarini, jumladan, demokratik jarayonlarda ishtirok etish ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda odamlarning baxtli bo‘lishida asosiy muammo ijtimoiy tartibning barqarorligini to‘liq ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Adolatli ijtimoiy tartib ta’minlanmagan joyda baxtli hayot sharoitlarini shakllantirib bo‘lmaydi. Ijtimoiy tartibning

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 8 феврал

o‘rnatalishi nazorat faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, bunda jamiyat nazorati muhim rol o‘ynaydi. Jamiyat nazorati vositalaridan biri bo‘lgan mahalla institutining nazorat tizimidagi o‘rni oshib borib, mahalla jamoatchilik nazoratining muhim vositasiga aylanmoqda. Shu bilan birgalikda, mahalla instituti o‘z funksiyalarini va, eng avvalo, nazorat funksiyasini amalga oshirishi uchun nazoratga doir bilim yetarli emasligi ma’lum bo‘lmoqda. Nazoratga doir bilimning yetarli bo‘lishini ta’minlash uchun mahalla o‘zining nazorat funksiyasini deputatlar guruhi va korpusi bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim. Lekin buning uchun mahalla bilan deputatlar o‘rtasida aloqa mexanizmi shakllangan bo‘lishi va samarali ishlab turishi kerak. Hozircha ana shunday mexanizm yetarli darajada yaxshi ishlab turibdi deb ayta olmaymiz. Harakatlar strategiyasida ijro hokimiyyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishni kuchaytirish vazifasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berilishi hamda xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilining e’lon qilinishi elektorat bilan deputatlar o‘rtasidagi aloqni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Bugungi kunda qonunchilik palatasi deputatlarining har oy 10–12 kun davomida elektorat bilan uchrashuvi mexanizmining shakllanishi strategiya talablari bilan bog‘liq.

Harakatlar strategiyasi aholining xilma–xil ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va bu ehtiyojlarni qondirishda mahalla instituti muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasida fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida gapirib, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar: “Bunda mahallani aniq yo‘naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo‘llab–quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e’tibor qaratish lozim”<sup>2</sup>. Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi xalq hayotini farovon qilish ekan va u fuqarolik jamiyatining kuchliligiga bog‘liq ekan, asosiy e’tibor fuqarolik jamiyatini yanada kuchli qilishga qaratilishi lozim.

Mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun kuchli fuqarolik jamiyati institutlari shakllangan bo‘lishi kerak, kuchli fuqarolik jamiyati institutlari bo‘lishi uchun esa kuchli fuqarolar bo‘lishi kerak. Fuqarolik jamiyatining asosiy instituti bo‘lgan mahallaning shakllanishi uchun ham kuchli fuqarolar bo‘lishi kerak. Mahallada kuchli fuqarolarni shakllantirish imkoniyati kengroqdir, chunki kuchli fuqaro deganda, eng avvalo, fuqarolik pozitsiyasi shakllanganlik holati tushuniladi. Mahallada esa mahalladoshlik pozitsiyasi an’ana tarzida mavjud bo‘lib kelgan. Ana shu mahalladoshlik pozitsiyasini hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, fuqarolik pozitsiyasi darajasiga ko‘tarish kerak. Ana shunda mahalla ahli fuqarolik pozitsiyasi asosida nafaqat mahalla doirasida, balki butun mamlakat miqyosida befarq bo‘lmasdan daxldorlik hissi bilan yashaydi. Bu esa, yuqorida ta’kidlaganimizdek, fuqarolik jamiyatini kuchli qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Harakatlar strategiyasida aholining xilma–xil ehtiyojlarini qondirish asosida ularning hayotini baxtli qilish pirovard maqsad hisoblanadi. Ushbu xususda gapirganda, ehtiyojlar qanday turlarga bo‘linishi to‘g‘risida gapirib o‘tish kerak bo‘ladi. Siyosatshunoslik fanida odamlarning ehtiyojlar uch guruhga, ya’ni bazaviy ehtiyojlar, ijtimoiy– madaniy ehtiyojlar

<sup>2</sup> “Халқ сўзи” газетаси. 2011 йил. 13 ноябр, 3–бет.

va siyosiy hayotda ishtirok etish ehtiyojlariga bo‘linadi. Fuqarolik jamiyatni institutlari ichida mahallaning o‘rnii yuqori ekanligini shundan ko‘rsa bo‘ladiki, boshqa institutlardan farq qilib, mahalla fuqarolarning deyarli barcha ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Boshqa institutlar fuqarolarning u yoki bu ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Aytaylik, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo‘lgan siyosiy partiyalar aholining siyosiy hayotda ishtirok etish ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi, kasaba uyushmalari esa fuqarolarning mehnat sharoiti va ish haqini yaxshilash ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Iste’molchilar assotsiatsiyasi fuqaroning iste’molchi sifatida huquqlarini himoya qilishga qaratilgan va hokazo. Mahallada esa fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy–madaniy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari mavjud. Shu jihatlarini inobatga olib mahallani universal fuqarolik jamiyatni instituti deb aytish mumkin.

Fuqarolar ehtiyojlarining qondirilishi uchun, eng avvalo, jamiyatda tartib o‘rnatalgan bo‘lishi lozim va bunday tartib har bir mahalladagi tartibdan tashkil topadi. Tartib bo‘lishi uchun insoniyat huquq va axloqdan iborat ikkita ijtimoiy reguliyatorlarni o‘ylab chiqqan. Xilma–xil ehtiyoj va manfaatlardan iborat bo‘lgan odamlar jamiyatni tartibga olinmasa, insoniyat jamiyatni son–sanoqsiz ziddiyatlardan, urushlardan iborat bo‘ladi va, oxir oqibatda, bunday jamiyat halok bo‘ladi. Shunday bo‘lmasligi uchun odamlar ehtiyojlarini jilovlash zaruriyati kelib chiqadi va bu huquq hamda axloq vositasida ta’minlanadi. Demak, mahallada tartib bo‘lishi uchun ana shu huquq va axloqqa rioya qilish kerak bo‘ladi. Buning uchun mahalla fuqarosi huquq va axloqqa rioya qilib, o‘z nafsin, ehtiyojini jilovlab, o‘ziga tinchlik, osoyishtalikni ta’minlashini unutmasligi kerak. Tinchlik esa inson baxtli hayotining muhim belgisi va sharti hisoblanadi. Ana shu oddiy haqiqatni tushunib yetgan odam huquq va axloq talablarini buzishdan o‘zini tiyishga qodir bo‘ladi.

Jamiyatda tartib o‘rnatishga xizmat qiladigan huquq va axloq o‘z–o‘zidan tartibni o‘rnatmaydi. Tartib o‘rnatish uchun huquq va axloqqa rioya qilish amalda ta’minlangan bo‘lishi kerak. Buning uchun ularga rioya qilish nazorat qilinishi lozim bo‘ladi, chunki inson zoti tabiatan nazoratga muhtoj, nega deganda har bir odamda tug‘ma egoizm bor. Hech kim o‘zini yuz foiz altruist deb ayta olmaydi, aytsa, u yolg‘on gapirgan bo‘ladi. Bunday xususiyat faqat farishtalarda bo‘ladi, insonda esa tabiatan, tug‘ma egoizm bo‘lib, u, albatta, nazorat ostida bo‘lishi lozim. Nazorat bo‘limgan joyda odam o‘z nafsining quliga aylanib qoladi va huquq hamda axloq meyorlarini buzib, ijtimoiy tartibsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa har qanday jamiyat uchun halokatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu o‘rinda nazoratdan eng manfaatdor odam kim degan savolga javob berish foydadan xoli bo‘lmaydi. Bu savolga javob berishda nazorat faoliyatining mahsuli bo‘lgan ijtimoiy tartibdan eng manfaatdor odam kim ekanligini aniqlab olish lozim. Buni tushunish uchun oiladagi tartibdan eng manfaatdor odam kim ekanligini bilish kerak. Oiladagi tartibdan eng manfaatdor odam oila boshlig‘i, ya’ni ota–ona ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Mamlakatni katta, kengaytirilgan oila deb aytsak, undagi tartibdan eng manfaatdor shaxs davlat boshlig‘i ekanligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun kimda–kim nazorat faoliyatiga to‘sinq bo‘lsa, u Prezident siyosatiga qarshi borgan bo‘lishini anglab olishi lozim. Shu o‘rinda yana shuni aytish kerakki, Prezidentdan boshqa barcha odamlar nazorat ostida bo‘lishi kerak, chunki nazorat beradigan tartibdan eng manfaatdor shaxs Prezident hisoblanadi.

Mahallada tartib bo‘lishi uchun nazorat kim tomonidan amalga oshirlishi va kimni nazorat kilish kerakligini aniqlab olish lozim. Ushbu savolga javob berishdan oldin nazorat o‘zi nima degan savolga javob berish kerak. Nazorat huquq va axloq asosida qabul qilingan cheklov larga, me’yorlarga rioya qilishni ta’minalash orqali jamiyatda tartib o‘rnatadigan mexanizm faoliyatidir. Demak, nazorat bu mexanizm faoliyati ekan. Mexanizm esa bir qancha elementlardan iborat bo‘lgan yaxlitlik, tizim bo‘lib, uning elementlari bir–biriga bog‘liq va bir–birini harakatga keltiradi. Mahallada ana shu nazorat mexanizmi ishlashi uchun, eng avvalo, mahallaning har bir a’zosi unda ishtirok etishi kerak. Agar mahallaning bиргина a’zosi ham nazoratda ishtirok etmasa, mexanizm ishlaydi, ishlasa ham zaif ishlaydi. Shuning uchun mahallada nazoratni kim amalga oshirishi kerak deganda, mahallaning har bir a’zosi, ya’ni barcha odamlar amalga oshirishi kerak deb aytish mumkin. Kimni va nimani nazorat qilish kerak deganda, mahalla raisi faoliyatini, huquq va axloqqa rioya qilishini nazorat qilish kerak deb tushunish kerak. Agar mahallada huquq va axloq buzilishi holati bo‘ldimi, mahalla ahli o‘z fikrini aytishi kerak. Bu borada mahalla maslahatchilari muhim vosita bo‘lishlari kerak.

Mahalla maslahatchilari raisga maslahat berishlari orqali nazoratni ham amalga oshirgan bo‘ladilar. Lekin buning uchun maslahatchi maslahat berish darajasida bilimga ham ega bo‘lishi kerak. Mahalla maslahatchilarini tuman miqyosida qiyoslaganda, ularni tuman kengashi deputatlari sifatida ko‘rish mumkin. Tuman deputatining asosiy vazifasi ijroiya hokimiyat ustidan qonunga rioya qilishni nazorat etish hisoblanadi. Mahalladagi maslahatchilar ham mahalla miqyosida hokimiyatni amalga oshirishda huquq va axloqqa rioya etilishni nazorat qilishlari lozim.

Deputatlar ko‘proq huquqqa rioya etishni nazorat qilishsa, mahalla maslahatchilari ko‘proq axloqqa rioya etishni nazorat qilishadi. Chunki mahalla ixtiyorida majburlov organlari yo‘q. Shuning uchun u qonun buzilishi holatlarida jazolash imkoniyatiga ega emas, ammo mahalla axloq qoidalari buzilganda ma’naviy ta’sir etish imkoniyatiga ega. Lekin bu degani mahallani tartibga olish imkoniyati past degan tushunchani keltirib chiqarmaydi. Agar mahallada biror–bir fuqaro to‘g‘risida salbiy fikr shakllansa, bu fikrni ijobjiy tomonga o‘zgartirish uchun kamida bir avlod davri, ya’ni 30 yilcha vaqt kerak bo‘ladi. Mahalla ana shu axloqiy ta’sir etish imkoniyatidan samarali foydalana olishi kerak.

Mahallada tartib o‘rnatilgandan keyin mahalla o‘zining funksiyalarini amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Mahallaning funksiyalaridan biri mahalla ahlini va, eng avvalo, yordamga muhtoj kam ta’minalanganlarning ijtimoiy himoyasini amalga oshirishdan iborat. O‘zbekiston tanlagan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlari yo‘li va taraqqiyotning o‘zbek modelining besh tamoyilidan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligini hamda Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ijtimoiy sohani rivojlantirish ekanligi aholining ijtimoiy himoyasi ustuvor vazifa ekanligini yaqqol ko‘rsatib turadi. Insoniyat jamiyatni yaralgandan boshlab aholining yordamga muhtoj qatlamlari bo‘lgan, hozir va bundan keyin ham bo‘ladi. Bunday holatga tushib qolishdan hech kim himoyalangan emas, shuning uchun aholining yordamga muhtoj qismini qo‘llab-quvvatlashdan hech kim chetda turmasligi kerak. Bu borada davlat ham fuqarolik jamiyatni institutlari ham, va, eng avvalo, mahalla faol bo‘lishi kerak. Chunki kimning qanday ahvolda yashayotganligini hammadan ko‘ra mahalla yaxshiroq biladi va manzilli yordamni amalga oshira oladi. Mahalla davlat ijtimoiy siyosatini hayotga tatbiq etadigan asosiy

institut hisoblanadi. Ijtimoiy himoya strategiyasi davlatning ijtimoiy siyosati orqali belgilab beriladi. Respublikamizda endigina shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy xizmat tizimi ana shu strategiyani amalga oshiradi. Bu borada ijtimoiy xizmat tizimi bilan mahalla o‘rtasida ijtimoiy sherikchilik o‘rnatilsa, yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, mahallada ijtimoiy xizmatchi shtatini joriy qilish ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

Demokratiya talabiga ko‘ra hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishi va nazorat qilinishi lozim. Shuning uchun mahallada demokratiya fuqarolar yig‘ini raisi va maslahatchilarni saylashda va saylangandan so‘ng ularni nazorat qilishda namoyon bo‘ladi. Umuman, saylov deganda faqat ovoz berish jarayonini tushunish kerak emas. Ovoz berish jarayoni saylov jarayonining bir qismi, xolos. Saylov deganda uch jarayon tushunilishi to‘g‘iroq bo‘ladi. Birinchisi, nomzod ko‘rsatish, ikkinchisi ovoz berish va, uchinchisi, saylangan odam bilan saylovchilar o‘rtasidagi aloqa jarayoni. Bunda mahalla raisligiga nomzod ko‘rsatish jarayoni muhim rol o‘ynaydi, chunki nomzod ko‘rsatishda tanlash imkoniyati keng bo‘ladi. Ovoz berishda esa ikki, uch kishidan birini tanlash imkoniyati bo‘ladi, xolos. Shuning uchun mahalla ahli nomzod ko‘rsatishda faolroq ishtirok etishi lozim. Davlat hokimiyati organlari rahbarlaridan farq qilib, mahalla raisi ko‘proq avtoritet asosida shakllanishi kerak. Chunki davlat hokimiyati rahbariga odamlar ham qo‘rqib, ham sevib itoat qilishadi. Nega deganda, agar odam hokimiyatga itoat qilmasa, qonunni buzsa, xokimiyat uni jazolashi uchun majburlov organlariga ega. Mahallada esa ko‘proq sevib, hurmat qilib itoat qilinadi. Mahalla, faqat ma’naviy ta’sir etish imkoniyatiga ega. Shuning uchun mahallaga raislikka tavsiya qilingan odam mahalla ahli o‘rtasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan bo‘lishi kerak.

Hokimiyat resursi motiv nuqtai nazaridan talqin qilinganda ikki narsadan—qo‘rquv va sevgidan iborat. Davlat hokimiyati organlarida qo‘rquv resursi ustunlik qilsa, mahalla hokimiyatida sevgi resursi ustunlik qiladi. Lekin davlatda ham, mahallada ham hokimiyatning har ikkala resursi mavjud bo‘lishi kerak. Agar davlat hokimiyatida faqat qo‘rquv bo‘lsa, bu hokimiyat emas, balki hukmronlik bo‘lib qoladi. Xalq hokimiyatni ham sevib, ham undan qo‘rqib itoat qilishi kerak. Mahallada ham odamlar raisga ham sevib, ham qo‘rqib itoat qilishlari kerak. Qo‘rquv faqat huquq va axloq normalari buzilishi ehtimoli paydo bo‘lganda kelib chiqishi lozim. Boshqa vaqtarda odamlar qo‘rmasdan, erkin yashashlari kerak. Buning uchun mahalla raisi eng obro‘li odamlardan saylanishi va nazorat ostida bo‘lishi kerak. Mahalla raisining katta obro‘-e’tibori, eng avvalo, uning adolat tamoyiliga rioya etishi bilan bog‘liq.

Ushbu masala yuzasidan gapirib, Birinchi Prezidentimiz shunday ta’kidlagan edilar: “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o‘zini—o‘zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta’minlaydigan chora—tadbirlarni nazarda tutadigan o‘zgartish va ko‘shimchalar kiritish taklif qilinadi<sup>3</sup>.

Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasiga asosan ishlab chiqilgan qonunlar, xususan, ”Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi,

<sup>3</sup> Халқ сўзи. 2010 – йил. 13–ноябр.

“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunlar va O‘zbekistonni 2017–2021 yillarda besh ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlantirish Harakatlar strategiyasi fuqarolik jamiyatni institutlarini, jumladan, mahallani ijroiya hokimiyat ustidan qonunga rioya qilishning nazoratini kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu qonunlarning qabul qilinishi va Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi mahallaning yanada kuchayishining siyosiy va huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘tgan qisqa tarixiy davrda mamlakatimizda shakllangan fukarolik jamiyatni institutlari ichida o‘zini-o‘zi boshqarish organi-mahalla o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi.** Kuchli fuqarolik jamiyatini qurish va uning asosida xalqimiz hayotini farovon qilish maqsadi mahallaning yanada kuchayishini talab etmoqda. Bu esa, aholining siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirib, befarqlikdan xalos bo‘lishi, daxldorlik hissining shakllanishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Aholi siyosiy va huquqiy madaniyatining oshishi nazorat tizimining kuchayishini ta‘minlaydi. Nazorat tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lgan ijtimoiy tartibni o‘rnatishga xizmat qiladi. Nazorat tizimining kuchli bo‘lishi odamlarda nazoratga doir bilimning yuqori bo‘lishiga bog‘liq, bilim esa ta‘lim tizimida shakllanadi. Demak, oliy ta‘lim tizimida nazoratga doir bilimni beradagan “Ijtimoiy nazorat” nomli o‘quv kursini kiritish maqsadga muvofiq.

Mahalla institutini jamoatchilik nazorati vositasi sifatida kuchaytirish uchun ijtimoiy nazoratga doir bilimni mahalla raisi, maslahatchilarini va kengash a’zolari hamda faollari o‘rtasida keng targ‘ib qilish choralarini ko‘rish lozim. Ushbu tadqiqot yoshlarimizga ham siyosiy, ham huquqiy bilim berib, ularning umumiyligi madaniyatining o‘sishini ta‘minlab, kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mahalla institutini rivojlantirish ushbu institut va uning faoliyatni to‘g‘risidagi bilimga bog‘liqdir. Chunki har qanday faoliyatni samarali amalga oshirish o‘sha faoliyatga doir bilimga bog‘liq bo‘ladi. Hozircha biror bir fan mahalla institutiga doir bilimni kompleks tarzda bermaydi. Shuning uchun ushbu faoliyatga doir bilimni kompleks tarzda beradigan “Mahalla instituti” nomli o‘quv kursini joriy etish zamon talabidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining zamonaviy shakllarini rivojlantirish va mahalla instituti faoliyatini kuchaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratganlari ushbu taklifning naqadar muhim ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi “Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish” yo‘nalishini amalga oshirish, jumladan, mahalla institutini yanada kuchaytirish, mamlakatda ijtimoiy adolatni ta‘minlash va fuqarolarning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish orqali ularning hayotini farovon, baxtli qilishda muhim ahamiyatga ega deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Demak, Harakatlar strategiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirish inson baxtliligining muhim shartlaridan bir bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibning barqarorligini hamda xalq manfaatini ifodalashni ta‘minlash orqali O‘zbekiston xalqining hayotini farovon va baxtli qilishda muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimizda adolatli ijtimoiy tartibning o‘rnatalishi bilan inson hayotini baxtli qilishning yuqorida ta‘kidlangan ijtimoiy omil to‘liq shakllanadi, ya’ni mustaqillik, tinchlik va adolatli ijtimoiy tartib ta‘minlanadi. Inson hayotini baxtli qilishning muhim shartlari

bo‘lgan, tabiiy omil va o‘zimizga bog‘liq bo‘lgan shaxsiy omil ijtimoiy omil bilan uyg‘unlashib xalqimizning tom ma’noda baxtli bo‘lishiga xizmat qiladi.

### Savollar:

- 1.Harakatlar strategiyasini qabul qilinishiga qanday ehtiyoj bor edi?
- 2.Harakatlar strategiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
- 3.O‘zbekiston xalqini hayotini baxtli qilishda Harakatlar strategiyasi qanday ahamiyatga ega?
- 4.Harakatlar strategiyasida mamlakatni demokratlashtirish masalasi qanday o‘ringa ega?
- 5.O‘zbekiston xalqi hayotini baxtli qilishda Harakatlar strategiyasining ahamiyati nimada?
- 6.Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarini o‘rni qanchalik muhim?
- 7.Fuqarolik jamiyatini kuchli qilishda mahalla institutining o‘rni nimada?

### **4-mavzu. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari**

Jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishda Konstitutsiya huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlatni asosiy qonuni bo‘lgan Konstitutsiya jamiyatda adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishi uchun unga rioya qilish amalda ta’minlangan bo‘lishi lozim. Buning uchun Qonun ustivorligi va adolatni qaror toptirishga qodir bo‘lgan nazorat tizimi shakllangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yilning 7 fevralida tasdiqlagan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida asosiy e’tiborni nazorat tizimini samarali qilishga xizmat qiladigan mexanizmni shakllantirishga qaratgan. Nazorat mexanizmi davlat va jamiyat institutlari nazoratidagi ijtimoiy sherikchiligidan tashkil topadi. Nazorat tizimida davlat nazoratini tarkibiy qismi bo‘lgan sud huquq tizmining nazorati muhim rol uynaydi. Jamiyatda tartib o‘rnatishga mas’ul bo‘lgan sud huquq tizimi ijtimoiy tartibni o‘rnatishi uchun oldin uni o‘zida tartib o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Shuning uchun mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasida asosiy e’tibor sud huquq tizimini isloh qilish masalasiga qaratilgan. Shundan kelib chiqib, biz sud huquq tizimida islohotlar borishi to‘g‘risida fikr yuritishga harakat qildik.

Bosh maqsadimiz bo‘lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat qurishning muhim sharti adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilganligidir. Ijtimoiy tartib deganda xukuk va axlok normalariga rioya kilsh ta’minlanib adolat karor topgan xolat tushuniladi. Ijtimoiy tartib o‘rnatilishi uchun huquq va axloq normalariga rioya qilish ta’minlangan bo‘lishi lozim. Buning uchun huquq va axloqga rioya qilish nazorat qilinishi kerak. Nazoratni yuqorida davlat, quyidan jamiyat amalga oshiradi. Nazoratni asosiy ob’ekti qonunga rioya qilish bo‘lib hisoblanadi. Qonunga rioya qilishni ta’minlash, eng avvalo, sud-huquq tizimiga bog‘liq. Shuning uchun davlat va jamiyatning nazorati xam, eng avvalo, sud-huquq tizimi ustidan bo‘lishi lozim, chunki, jamiyatda tartib bo‘lishi uchun ijtimoiy tartibni o‘rnatishga mas’ul bo‘lgan sud-huquq tizmining o‘zida tartib o‘rnatilgan bo‘lishi lozim.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar oxir oqibatda sud hukmining adolatligini ta'minlashga qaratilgan. Tarix shundan guvohlik bermoqdaki adolatni ta'minlaydigan ijtimoiy tartibni o'rnatish uchun faqat davlat nazorati yetarli emas ekan. Buning uchun jamiyat nazorati ham kerakdir. Qayerda ijtimoiy tartib zaif bo'lsa, o'sha yerda fuqarolik jamiyati kuchsiz bo'lgan bo'ladi. Fuqarolik jamiyati kuchli bo'lgan jamiyatda ijtimoiy tartib ham mustahkam bo'ladi. Ijtimoiy tartib o'rnatish eng avvalo sud-huquq tizimiga bog'liq ekan va sud-huquq tizimi jamiyatda tartib o'rnatishi uchun oldin uning o'zida tartib o'rnatilgan bo'lishi kerak ekan, demak, buning uchun sud - huquq tizimi ustidan nazorat kuchli bo'lishi kerak.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda hal qiluvchi rolni sud hokimiyati o'ynaydi. Chunki, kimni haq yoki nohaqligini oxir oqibatda sud hokimiyati belgilaydi ya'ni, oxirgi nuqtani sud hokimiyati qo'yadi. Shuning uchun sud xato qilishga haqqi yo'q. Bu esa o'z navbatida sud hokimiyatini hukmini adolatligini kafolati bo'lishini taqozo etadi. Bu yerda muammo shundaki, sudlar mustaqil, ular faqat qonunga asoslanib ishlashadi va ularni nazorat qilish mumkin emas degan tushuncha shakllanganligida. Lekin sudlar ham barcha boshqa odamlar singari nazoratga tabiatan muxtoj, chunki, ularda ham boshqa insonlarda bo'lgani kabi egoizm bor. Shuning uchun sud hokimiyati ham nazorat ostida bo'lishi kerak. Faqat u yoki bu tashkilotni nazorati ostida emas, balkim, jamoatchilik nazorati ostida bo'lishi lozim. Qolaversa, bu demokratiyani talabidir, chunki, demokratiya deganda hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishi va nazorat qilinishi tushuniladi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati ham jamoatchilik nazorati ostida bo'lishi lozim. Sud hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi rol o'ynaydilar. Sud hokimiyati hukmini adolatligini asosiy garovi jamiyatni nazorati bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda siyosiy hayotda amalga oshirilayotgan islohotlar hokimiyatni tarmoqlarga bo'linishi va ularni bir biridan mustaqilligini taminlashga qaratilgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyat jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan qonunlarni ishlab chiqaradi, ijroiya hokimiyat esa shu qonunlarga asoslanib jamiyatni boshqaradi, sud hokimiyati ushbu jarayonda qonunga rioya qilishni nazorat qiladi. Ko'rinib turibdiki hokimiyatning har uchchala tarmog'ini faoliyatini markazida qonunga rioya qilish va ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi turibdi. Oxir oqibatda qonunga rioya qilishni ta'minlash sud hokimiyatiga bog'liq bo'ladi. Agar sud hokimiyati o'z funksiyasini to'g'ri bajarmasa har qanday yaxshi qonun ham ahamiyatga ega bo'lmay qoladi va natijada ijtimoiy tartibga putur yetadi. Bunday holat bo'lmasligi uchun qonunga rioya qilishni faqat sud hokimiyati nazorat qilishi yetarli emas, buning uchun hokimiyatning har uchala tarmog'i ham bir birini qonunga rioya qilishini nazorat qilishi kerak. Buning uchun sud hokimiyati ustidan nazoratni konstitutsion mexanizmini topish kerak.

Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lган ijtimoiy tartibga ichki va tashqi tahdidlar mavjud. Tashqi tahdiddan himoya tashqi aloqa organlari, qurolli kuchlar, milliy xavfsizlik xizmati va bojxona xizmati orqali ta'minlanadi. Ichki tahdiddan esa sud-huquq tizimi ya'ni militsiya, prokuratura, adliya, miliy xavfsizlik xizmati va sud hokimiyati himoyani taminlaydi. Ichki va tashqi tahdiddan qay biri xavfliroq desak ichki tahdid xavfliroq deb aytish to'g'ri bo'ladi. Chunki, ichki tahdid jamiyatda norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ichki tahdid bo'lган norzilik kayfiyatini kelib chiqishini asosiy sababi

adolatsizlikdir, ya’ni qonunga rioya qilish amalda ta’minlanmaganligidir. Shuning uchun inson har qanday qiyinchilikka chidaydi, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi degan fikr mavjud. Norozilik kayfiyati kuchli bo‘lgan jamiyatni har qanday tashqi tahdid parokanda qilishi mumkin.

Mamlakatda odamlarda norozilik kayfiyati bo‘lmasligi uchun, ular eng avvalo, erkin bo‘lishlari kerak. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati bo‘lgan liberallashtirish aynan ana shu erkinlikni ta’minalashga qaratilgan. Erkin insongina jamiyat tarakkiyoti uchun o‘z ichki imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishga harakat qiladi. Sud-huquq tizimidagi islohotlar mohiyati ham liberallashtirishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda sud-huquq tizimi jazolovchi organ emas, balki, fuqarolarni huquqlarini himoya qiluvchi organga aylanishi lozim. Odamlar ushbu tizimdan qurqib emas, balkim, o‘z ixtiyori bilan ularning adolatligini hurmat qilib va sevib itoat qilishlari kerak. Bu liberallashtirish mohiyatidan kelib chiqadi, chunki liberallashtirish insonni qurqib emas, balkim, o‘z ixtiyori bilan erkin harakat qilishini anglatadi. Albatta qo‘rquv hissi batamom yo‘qolib ketmaydi. Insonda qo‘rquv faqat ikki holatda kelib chiqishi kerak xolos ya’ni birinchidan qonuni va ikkinchidan ahloq normalarini buzish extimoli paydo bo‘lgandagina qo‘rquv kelib chiqish kerak. Boshqa holatda inson qurqmasdan erkin yashashi lozim. Buning uchun esa sud xokimiyati hukmini adolatligi kafolati ta’minlanib adolat karor topgan bo‘lishi kerak.

Bunday kafolatni davlat va jamiyatning nazorat borasidagi ijtimoiy sherikchiligi ta’minalashi mumkin. Mamlakatimizda sud hukmini adolatligini kafolatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sudlarni mustaqilligini ta’minalash ularni ixtisoslashuvi, sudlarni Prezident xuzuridagi oliy malaka komissiyasi tomonidan tayinlanishi va sanksiya berish vakolatlarini prokuraturadan sudlarga o‘tkazilishi sud hukmini adolatligini kafolatini ta’minalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari «Xabeas korpus» institutini joriy qilinishi, aybsizlik prezumpsiyasi talablari, sud organlarini boshqa huquq-tartibot organlari bilan tizimli bog‘liqligi va ma’lum bir ahloqiy tamoyillar orqali shakllanadigan vijdon va iyomon kabi tushunchalar bilan ifodalanadigan ichki nazorat sud hukmini adolatligi kafolati bulib xisoblanadi. Sud hukmini adolatligini kafolatlaydigan omillarning ichida eng muhimi ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratidir. Bunday nazorat sud hokimiyati faoliyatini ochiqligi va oshkorligida namoyon bo‘ladi. Extiyot chorasi sifatida kamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o‘tkazilishi natijasida asossiz ravishda qomoqqa olish keskin kamaydi. Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasida 2008 yil yanvardan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 marotabadan ortiq xolatda mazkur ehtiyyot chorasini qullash rad qilinganligi ta’kidlangan.

Kassatsiya instansiysi islox kilinib, sud ishlarini kayta kurishning apellyatsiya tartibi joriy etilishi fukarolarni sud orkali ximoyalanish kafolatini yanada kuchaytirdi. Shu tarika fukarolarni birinchi instansiya sudlarining karorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopik tarzda kurib chikish tartibi tugatilib, fukarolar konuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud kararidan norozi bulgan takdirda, uz xukuk va konuniy manfaatlarini kassatsiya instansiyasida uz advokti ishtirokida bevosita ximoya kilish imkoniyatiga ega bulishdi. Joriy etilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yul kuyilgan xatolarni uz vaktida tuzatish, sud faoliyatida sansolarlikka yul kuymaslikni muxim kafolatiga aylandi. Agar 2000 yilda sud xatolarini deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan

bulsa, 2009 yil yakunlariga kura, bunday xatolarni 85% dan ortigi apellyatsiya va kassatsiya tartibida bartaraf etilgan. Lekin, nimagadir xukukiy reabilitatsiya instituti amaliyotda kullanilmay kelinmokda. Vaxolanki, ushbu institutni kullanishi sud xokimiyatini adolatligini kafolatlaridan biri bulib xisoblanadi va ertami-kechmi adolatni karor topishini ta'minlaydi.

Respublikamizda, jumladan, Samarkand viloyatida sudsizligi Harakatlar strategiyasi e'lon qilunga qadar adolat talablari darajasiga yetarlicha erishmagan edi. Chunki, o'sha vaqtarda Samarqand viloyatida tergov organlari tomonidan kelgan deyarli barcha xujjatlar ma'kullangan edi. Masalan, 2011 yil 9 oy davomida Samarqand viloyati sudsizligi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha 509 ta shaxsga nisbatan prokuratura tomonidan qamoqqa olishga saksiya berish to'risida iltimosnomalar kelib tushgan bulib, shundan deyarli barchasi ya'ni 504tasi kanoatlantirilgan, fakat 5 tasigina rad kilingan va prokuratura tomonidan kaytarib olingen. Yoki 2011 yil 9 oy davomida 7 ta gumanlanuvchi tonidan extiyot chorasini o'zgartirish to'g'risida apellyatsiya protesti sudsizlarga berilgan, lekin, ular qanoatlantirilmagan ya'ni birinchi instansiya sudsizlari qarorlari kuchda kolgan. Bunday xolat davom etaversa sud xokimiyatini roli pasayib ketadi. Bunday sudga ega bulgandan kura bir kotibani kuyish kerak u tergov organlari tomonidan berilgan xujjatlarni tasdiklab beraversin. Bu davlatga ancha arzonga tushadi, lekin, albatta konun va adolat oyok osti buladi.

Mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib ular sud hukmini adolatligini kafolatini mustahkamlab bormoqda. Bunday kafolatni yanada ko'chaytirish uchun O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2010 yilning 12 noyabrida Parlamentning qo'shma majlisida bayon qilingan mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasida va Harakatlar strategiyasida qator tashkiliy huquqiy chora tadbirlar taklif qilindi. Ushbu takliflar ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat tizimini samarali ishslashini ta'minlaydigan mexanizmini shakllantirishga qaratilgan.

Bunday nazorat mexanizmini shakllanishi mamlakatda demokratiya va fuqarolik jamiyatini yuksalishini taqoza qiladi. Bu esa odamlarni siyosiy, huquqiy ong va madaniyatiga bog'liqdir. Shuning uchun Harakatlar strategiyasiyada siyosiy va huquqiy madaniyatni oshrishga qaratilgan maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish talab etilgan. Siyosiy-huquqiy ong ta'lim tizimida shakllanishini inobatga olsak Oliy ta'lim tizimida bunday bilimlarni kengroq berib borish lozimligini anglab olish mumkin. Masalan, Oliy ta'lim tizimida "Ijtimoiy nazorat" o'quv kursini joriy qilinishi fuqarolarni nafaqat huquqiy, balki, siyosiy madaniyatini oshrishga xizmat qiladi. Chunki nazorat huquq va ahloq normalarida rioya qilishni ta'minlash orqali ijtimoiy tartibni o'rnatadigan mexanizm faoliyatidir. Bunday faoliyat siyosiy jarayonlarning ko'rinishlaridan biridir, chunki, nazorat davlat boshkaruvini tarkibiy kismidir.

Sud-huquq tizimini adolatligini kafolatidan biri advokatura tizimi ekanligidan kelib chiqib advokaturani mustaqilagini kuchaytirish choralarini kurish lozim. Xozirgi kunda advokatura qog'ozda mustaqil amalda esa mustaqillik tuliq ta'minlangan emas. Bu borada advokatlarni professional maxoratini oshrish va ma'nnaviyatini yuksaltirish muxim ahamiyatga ega. Advokat bilan prokurorning tengligini amalda ta'minlashga harakat qilish lozim. Ana shunda advokat real huquqiy kuchga aylanadi va sud hukmini adolatligini

kafolatlaridan biri bo‘la oladi. Bu boradagi muammolardan biri shuki erkin kasblardan bulgan advokatlik faoliyatida individualzm an’analari kuchlilik kiladi. Bu esa ularni birlashishiga tuskinlik kiladi va jipslikka salbiy ta’sir etadi. Vaxolanki ular ularini korporativ manfaatlarini ifodalashlari uchun birlashgan xolda xarakat kilishlari kerak. Ular birlashgan xolda fukarolik jamiyati instituti bilan va eng avvalo, Ommaviy axborot vositalari bilan xamkorlikda faoliyat olib borishlari lozim. Ana shunda advokat real hukukiy kuchga va o‘z ximoyachisigaadolatli munosabatni kafolatiga aylanadi. Xozircha biror-bir advokat uz mijozini sud zalidan olib chikib ketganligiga misol keltirolmaymiz. Yoki aybsizlik prezumpsiyasi asosida aybi isbotlanmaganligi xolati buyicha sud zalidan ozod kilinganiga misol keltirishga kiynalamiz. Vaxolanki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bunday xolatlar tez-tez uchrab turadi. Bizlarda sobiq sovetlar zamonasidagi buzuq amaliyot o‘z ta’sirini hozirgacha saqlab kelmoqda. O’sha zamonda birovni sudda ayblastish uchun aybni isbotlash shart emas, balki aybdor o‘z aybiga iqror bo‘lsa shuning o‘zi hukm chiqarishga yetarli degan tamoyil hukmronlik qilgan. Vaholangki, odil sudlov bo‘lishi uchun nafaqat aybdor o‘z aybiga iqror bo‘lishi, balki ayb qonunda belgilangan tartibda isbotlangan bo‘lishi lozim. Odil sudlov bo‘lishi uchun aybdorligiga gumon bo‘lsa ham u aybsiz deb topilishi kerak, chunki aybsiz odam nohaqdan jazolangandan ko‘ra, aybdor odam jazolanmay qolgani ma’qulroqdir.

Sud hukmini adolatligini kafolatini kuchaytirish uchun Sudyalikka ta’yinlashni yosh chegarasini belgilash maqsadga muvofiq. Chunki, Sudya hukm chiqarganda qonunga va vijdonga asoslanishi uchun u ma’lum bir hayot maktabini o’tagan bo‘lishi lozim. Insonda vijdon kuchli bo‘lishi uchun iymon kuchli bo‘lishi kerak, iymon kuchli bo‘lishi uchun esa, oxirat azobidan va Xudodan qurqish kerak. Lekin, inson kupinchcha 50 yoshdan utgandan keyingina Xudoni, oxiratni uylashga qodir bo‘ladi. Ungacha insonga xayot cheksiz kurindi va u oxiratni uylashga yetarli darajada tayyor bo‘lmaydi. Shuning uchun Muhtaram Prezidentimiz o‘zlarining chiqishlaridan birida inson 60 yoshlarga yetganda Xudoni uylaydigan buladi va o‘zidan keyin yaxshi nom qoldirishga xarakat qiladi deb ta’kidlaganlar.

Sud hukmini adolatligini kafolatini ta’minalashda sud maslahatchilarni roli yuqori. Lekin buning uchun sud maslahatchilarini rolini oshirish choralarini kurish lozim. Hozirgi kunda sud maslahatchilari deyarli xech qanday rolni uynamaydigan “qo‘g‘irchoq rol”ni bajarmoqda xolos. Bu o‘z navbatida sud maslahatchilarini ma’naviyati qashshoqligidan darak beradi. Agar ma’anaviyat yuksak bo‘lganda edi ular “qo‘g‘irchoq” rolini bajarmagan bo‘lur edi. Shuning uchun sud maslahatchilarini bilim va ma’naviyati yuksak odamlardan shakllantirishga harakat qilish kerak.

Sud hokimiyatini adolatligini ko‘rsatkichlaridan biri odamlardagi daxldorlik xissidir. Agar odamlar sudning adolatligiga ishonmasa ular jamiyatga nisbatan befarq bo‘ladilar. Bu bilan halq o‘zini noroziliginu irratsional tarzda ifodalaydi. Qaysi jamiyatda befarqlik kuchli bo‘lsa, demak, o‘sma jamiyatda sud xukmini adolatligi kafolati ta’minalmagan va adolat qaror topmagan bo‘ladi. Demak, adolatsizlikni ko‘rsatgichi befarqlik kayfiyatidir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki mamlkatimizda sud-xukuk tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibni karor toptirishga karatilgan. Buning uchun sud-xukuk tizimi va eng avvalo, sud xokimiyati mustakilligi ta’minalangan bulishi lozim. Shu bilan birgalikda sud-xukuk

tizimini ochikligi va oshkoraliги orkali jamiyat nazorati urnatilgan bulishi lozim. Davlat va jamiyat nazoratini uygunligidan iborat bulgan nazorat tizimigina sud-xukuk tizimini adolatligini kafolatini ta'minlashga kodirdir. Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiysi va Harakatlar strategiyasida taklif kilingan va bugungi kunda ishlab chiqilgan konunlar ushbu maksad yulida xukuiy asos bo'ladi va sud hokimiysi ustidan nazoratni konstitutsion mexanizimini shakllantirishga xizmat kiladi. Demak O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va mamlakatimizda shakllanayotgan nazorat tizimi adolatli ijtimoiy tartibni kafolatidir.

### **Savollar:**

- 1.Qonun ustuvorligi va jazoning muqarrarligining adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishdagi ahamiyati nimada?
- 2.Qonun ustuvorligini ta'minlashda sud-huquq tizimini o'rni qanchalik muhim?
- 3.Qonun ustuvorligini ta'minlashda nazorat faoliyatining o'rni nimada?
4. Mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sud hukmining adolatligini ta'minlashda qanday ahamiyatga ega?
5. Mamlakatimizda siyosiy hayotda amalga oshirilayotgan islohotlar hokimiyatni tarmoqlarga bo'linishi va ularni bir biridan mustaqilligini taminlashga qaratilganligi qonun ustuvorligini ta'minlashda qanday ahamiyatga ega?
6. Mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar sud hukmini adolatligini kafolatini ta'minlashda qanday ahamiyatga ega?
- 7.Sud hukmining adolatligini kafolati nima?

## IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATYERIALLARI

### 1-seminar. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiy islohotlarning jadallahuvida yangi siyosiy muhitning o'rni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrdagi, 2018 yil 28 dekabrdagi va 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etishga chaqiruv hisoblanadi. Bugungi kundagi murojaatnomaning farqi shundaki bunda nominal demokratiyadan real demokratiyaga o'tishga xizmat qiladigan yangi siyosiy muhit shakllanmoqda. Boshqacha qilib aytganda bugungi kunda mamlakatmizda demokratiyaning shakliga munosib mazmuni shakllanib bormoqda. Murojaatnomaning mazmun-mohiyatini tushunish uchun islohotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib fikrlash kerak. Mamlaatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonni rivojlantirish asosida xalqimiz hayotini baxtli qilishga qaratilgan. Demak murojaatnomani mazmun-mohiyati O'zbekiston xalqini hayotini baxtli qilishda faol ishtirok etishga chaqiriq deb aytish mumkin.

Islohotlarning maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, eng avvalo, xalqning dardini bilish va mavjud ijtimoiy muammolarni aniqlab olish kerak bo'ladi. Shuning uchun islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan 2017 yilning 7 fevralida tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining birinchi bosqichi "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb nomlandi. Muammolar aniqlab olingandan so'ng Harakatlar strategiyasining ikkinchi bosqichiga "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nom berildi. Bozor munosabatlari sharoitida pul omilini birinchi o'ringa chiqishi va iqtisodiy rivojlanish investitsiyaga bog'liq bo'lishi sababli, Harakatlar strategiyasining uchinchi bosqichi ya'ni 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb nomlandi. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish g'oyasining talablaridan va taraqqiyotning muhim sharti ilm-fan yutuqlariga asoslanish ekanligidan kelib chiqib 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berildi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy ketma-ketlikda bir biriga bog'langan bosqichlardagi vazifalarni samarali amalga oshirilishi adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatilganligiga bog'liq.

Murojaatnomada ijtimoiy hayotning barcha sohalariga doir vazifalar belgilab berilgan. Har bir soha vakillari murojaatnomani o'rganganda o'zlariga doir vazifalarni aniqlab olishlari va uni ijrosi borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari lozim. Lekin murojaatnomada inson qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar hamma uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar ham mavjud. Bularga O'zbekiston tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lidan jadal rivojlanish borasidagi vazifalar, zamonamiz mohiyati bo'lgan fuqarolik jamiyatini kuchli qilish borasidagi vazifalar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni asosida yotgan liberallashtirish jarayonini takomillashtirish borasidagi vazifalar, barcha sohadagi rahbar kadrlarni o'z ishiga tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik qoidalariga rioya qilgan holda faoliyat olib borishi borasidagi vazifalar va boshqa vazifalar kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish hamma uchun daxli bo'lgan korrupsiya muammosini hal qilib O'zbekiston xalqini hayotini baxtli qilishga qaratilgan.

Baxtli hayot qurish borasida gapirganda yana bir yangilikni aytib o'tish adolatdan

bo‘lar edi. Oldingi murojaatda muhtaram Prezidentimiz tomonidan baxtli hayot to‘g‘risidagi tushuncha tanqidiy tahlil qilinib bir yangilik kiritilgan edi. Yangilik shundan iboratki - baxtli hayot kelajakda emas balki bugun bo‘lishi kerak degan fikrda. Chunki bizlar baxtli hayot kelajakda bo‘ladi degan fikrga o‘rganib qolib ertangi kunimiz baxtli bo‘ladi degan fikr to‘g‘ri deb qabul qila boshladik. Lekin hech kim, nima uchun ertangi kunimiz baxtli deb yashashimiz kerak, biz bugun yashaymiz bugungi kunimiz qachon baxtli bo‘ladi degan fikrni xayoliga ham keltirmay keldi. Muhtaram Prezidentimiz ushbu masalaga tanqidiy yondashib odamlar bugun yashaydi va ular bugun baxtli bo‘lishlari kerak degan yangi g‘oyani ilgari surdilar. Bu yangi taklifning ahamiyati shundaki agar biz bugun ertangi kunimiz baxtli bo‘ladi deb yashasak, ertaga farzandlarimiz ham ertangi kunimiz baxtli bo‘ladi deb yashaydi, indinga nabiralarimiz ham xuddi shunday fikr bilan yashaydi, natijada baxtli hayot reallikka aylanmay faqat orzu bo‘lib qoladi. Bunga qariyib 90 yil davom etgan sho‘rolar zamoni yaqqol misol bo‘ladi. Sho‘rolar zamoni tarixi bizga saboq bo‘lib ushbu xatoni takrorlamasligimiz kerak va buning uchun murojaatnomani mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglab olishimiz kerak.

Murojaatnama baxtli hayot qurish bilan bog‘liq ekan, eng avvalo, baxtli hayot nima ekanligini aniqlab olish kerak. Baxtli hayot nima ekanligini bilgandan keyin murojaatnomani tushinish osonroq kechadi, chunki biror bir narsaga erishish uchun o‘sha narsaga doir bilim muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi muammo shundan iboratki baxt to‘g‘risida xilma-xil tushunchalar mavjud, chunki har kim baxtni har xil tushinadi. Natijada, fikrlarning tarqoqligi va ayrim tushinmovchiliklar kelib chiqadi. Hatto baxt so‘ziga aniq ta’rif berib bo‘lmaydi, chunki bu nisbiy tushuncha degan fikr ham mavjud. Lekin bu fikrga to‘liq qo‘silib bo‘lmaydi, unga faqat qisman qo‘silish mumkin. Nima uchun qisman qo‘silish mumkin, chunki mutlaq haqiqat, mutlaq adolat bo‘lmaganidayek mutlaq baxt ham bo‘lmaydi. Nima uchun to‘liq qo‘silib bo‘lmaydi, chunki insonni millati, dini, irqi va mafkurasidan qat’iy nazar hamma uchun bir xil to‘g‘ri keladigan baxt ta’rifini berish mumkin. Shuning uchun Abu Nasr Farobi tarbiya tajribali o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilishi kerak, chunki har bir odam baxtni va hodisalarini o‘zicha bila olmaydi deb ta’kidlagan.

Baxtni ta’rifni berishdan oldin, hozirgacha baxtga berilgan ta’rifni aytib o‘tish va uni kamchiliginı aniqlab olish kerak bo‘ladi. Aksariyat lug‘atlarda baxt insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining to‘liq qondirilganlik holati deb berilgan. Bir qarashda mukammal ta’rifga o‘xshaydi, insonga yana nima kerak qorni to‘q, usti but bo‘lsa va kamchiligi bo‘lmasa baxtli bo‘lish uchun yetarlidek ko‘rinadi. Lekin bu ta’rifda bitta kamchilik bor va bu kamchilik qo‘rquvsiz erkin yashash hissi yo‘qligi hisoblanadi. Agar insonda qo‘rquvsiz erkin yashash hissi bo‘lmasa uning qor to‘q, usti but va ehtiyojlari qondirilgan bo‘lsa ham u baxtli bo‘la olmaydi. Hatto qo‘rquvsiz erkin yashash hissi insonning baxtliligining eng muhim sharti degan aytish mumkin. Aslida bunday hissiyot ta’minlangan muhitda insonning ehtiyojlari ham qondirilgan bo‘ladi, chunki qo‘rquvsiz erkin yashash hissi bo‘lishi ijtimoiy tartibga bog‘liq va bu tartib jamiyat taraqqiyotining ham muhim sharti hisoblanadi. Shunday qilib baxt so‘ziga – qo‘rquvsiz erkin yashash hissi ta’minlangan holda moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining to‘liq qondirilganlik holati deb ta’rif berish to‘g‘riq bo‘ladi.

Inson baxtli bo‘lishi uchun, u, eng avvalo, qo‘rqmasdan erkin yashashi kerak ekan va buning uchun nima kerak degan savol kelib chiqadi. Buning uchun jamiyatdaadolatli

ijtimoiy tartib o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Ana endiadolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishda Harakatlar strategiyasi asosida ishlab chiqilgan murojaatnomaning ahamiyati nimada degan savolni javobini berish kerak bo‘ladi. Murojaatnomma yuqorida ta’kilaganimizdek ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, jumladan, siyosiy sohani isloq qilish borasidagi vazifalarni belgilab beradi. Siyosiy islohot deganda demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish bog‘liq bo‘lgan vazifalar tushiniladi. Demokratiya deganda hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishi va nazorat qilinishi tushiniladi. Halq o‘z nazoratini amalga oshirishi demokratiya talabi hisoblanadi va buning uchun xalq kuchli bo‘lishi kerak. Kuchli bo‘lishi uchun esa, u birlashgan bo‘lishi lozim va xalqning birlashganlik holati fuqarolik jamiyatini degan tushuncha bilan ifodalanadi.

Fuqarolik jamiyatining xalqaro miqyosda e’tirof etilgan asosiy funksiyasi ijroiya hokimiyat ustidan nazoratni amalga oshirish funksiyasi hisoblanadi. Murojaatnomada Parlament rolini kuchaytirish borasidagi vazifalar ijroiya hokimiyat ustidan jamiyat nazoratini samarali qilishga xizmat qiladi. Demokratiyanı takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish esa,adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishning muhim sharti hisoblanadi. Bunday tartib o‘rnatilgan joyda esa ijtimoiy hayotning barcha sohalarida rivojlanishni ta’minalash mumkin bo‘ladi, chunki, tartib jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Shunday qilib murojaatnomada belgilab berilgan siyosiy islohotlar adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatish asosida inson baxtliligining muhim sharti bo‘lgan qo‘rquvsiz erkin yashash hissini ta’minalaydi deb aytish mumkin. Shu bilan birgalikda adolatli ijtimoiy tartib nafaqat qo‘rkuvsiz erkin yashash hissini balki insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirilishini ta’minalashga ham sharoit yaratadi, chunki tartib o‘rnatilgan joyda iqtisodiy o‘sish ham va boshqa barcha sohalarining rivojlanishi ham ta’minalanadi. Demak, insonning tom ma’noda baxtli bo‘lishi adolatli ijtimoiy tartibga va bunday tartib esa demokratiya hamda fuqarolik jamiyatining kuchliligiga bog‘liq deb aytishga barcha asoslar bor.

Demokratiya va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish borasidagi muammolardan biri nazorat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Har qanday faoliyat samarali amalga oshirilishi uchun o‘sha faoliyatga doir bilim kerak bo‘ladi. Xuddi shunday nazorat faoliyatining samaradorligi ham nazorat faoliyatiga doir bilimga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki bilim ta’lim tizimida shakllanadi, lekin bugungi kunda ta’lim tizimida biror bir fan nazorat faoliyatiga doir bilimni bermaydi. Vaholanki, bu bilim hech qanday mubolag‘asiz insoniyat jamiyatini uchun kerak bo‘lgan eng muhim bilim hisoblanadi. Chunki bu bilim jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga xizmat qiladigan bilim hisoblanadi. Shuning uchun ta’lim tizimida yoshlarimizga nazorat faoliyatiga doir bilimni beradigan fanlarni joriy etish zamon talabi hisoblanadi deb aytish mumkin. Bu borada SamDUda ma’lum bir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilib “Ijtimoiy nazorat” nomli fan joriy qilingan. Ijtimoiy nazorat fani beradigan bilim jamiyat taraqqiyotining va inson baxtliligining muhim sharti bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga xizmat qilishini inobatga olib ushbu yangi fanni Oliy ta’lim tizimiga joriy qilishni taklif qilish mumkin.

Bugungi kungacha demokratiya va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish borasidagi asosiy muammolardan yana biri mamlakat iqtisodida qishloq xo‘jaligining ulushini yuqoriligi va qishloq xo‘jaligida esa ko‘p suv iste’mol qiladigan ekinlarning, jumladan, paxtaning ulushining ko‘pligi sabab bo‘lib keldi. Chunki sun’iy sug‘orishga asoslangan

dehqonchilikda davlat hokimiysi organlarini qonunga qat’iy rioxay qilishini ta’minlash muammo bo‘lib qoladi. Bunday holat demokratiyani va fuqarolik jamiyatini kuchli qilishga yo‘l qo‘ymaydi va oxir oqibatda tarixdan ma’lum bo‘lgan Sharqona despotizmni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodida qishloq xo‘jaligini ulushini qisqartirish va sanoatni rivojlantirishga qaratilgan siyosat yuritilmoxda. Buni murojaatnomada paxta va bug‘doyga davlat buyurtmasini bekor qilish kerakligi to‘g‘risidagi fikrdan yaqqol ko‘rsa bo‘ladi. Bu borada turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki turizm paxta ekiniga o‘xshab davlatning suv taqsimoti funksiyasiga bog‘liq emas. Iqtisodiyotimizda paxta ekini beradigan daromadni pasayishini asta-sekinlik bilan turizm hisobidan qoplاب borish demokratiyani va fuqarolik jamiyatini kuchli qilishga xizmat qiladi deb aytish mumkin. Shuning uchun murojaatnomada turizmni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda yuqori, lekin biz hozircha mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalana olmayapmiz. O‘zbekistonning tarixiy yodgorliklarga boy Samarqand, Buxora va Xorazm kabi shaharlarini turistik imkoniyatlarini rivojlantirish borasida olib borayotgan ishlar talab darajasida emas. Birgina Samarqand shahrining turistik imkoniyatlari to‘g‘risida gapirganda sho‘rolar zamonida Samarqand shahri turistlarni qabul qilish bo‘yicha sho‘rolar mamlakatida birinchi o‘nlikka kirganligini ta’kidlash lozim. Turizm sohasini rivojlantirish, eng avvalo, ushbu sohaga investitsiyani jalb qilishga va investitsiyani jalb qilish esa qulay investitsion muhit shakllanganligiga bog‘liq. Qulay investitsion muhit yaratish borasidagi asosiy muammo byurokratiya, porxo‘rlik va korrupsiya illati bilan bog‘liq. Ushbu muammoni bartaraf qilishning eng maqbul yo‘li demokratiyani takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish bilan bog‘liq. Shuning uchun xalqaro miqyosda u yoki bu davlatdagi korrupsiyaning darajasiga qarab demokratiya va fuqarolik jamiyatining kuchlilik darajasiga baho beriladi. Qayerda byurokratiya, poraxo‘rlik va korrupsiya jilovlangan bo‘lsa o‘sha yerda demokratiya va fuqarolik jamiyatni kuchli degan xulosa qilinadi va aksincha. Demak dunyodagi eng daromadli sohalardan biri bo‘lgan turizm sohasini rivojlanishi ham, demokratiya va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish orqali adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga bog‘liq.

Murojaatnomaning maqsad va vazifalarini amalga oshirish odamlarning hayotga ongli munosabatda bo‘lishlariga bog‘liq. Hayotga ongli munosabatda bo‘lish deganda befarqlik kayfiyatini jilovlab daxldorlik hissi bilan yashash tushniladi. Hayotga ongli munosabatda bo‘lish, eng avvalo, demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish jarayonida ishtiroy etish degani. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda, va eng avvalo, demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish jarayonida ishtiroy etish murojaatnomaliga muvofiq harakat qilish hisoblanadi. Shuning uchun murojaatnomani jamiyatni hayotga ongli munosabatda bo‘lishiga chaqiruv deb aytish mumkin.

Bu boradagi muammolardan yana biri fuqarolik pozitsiyasining zamon talablaridan orqada qolayotganligi. Fuqarolik pozitsiyasi deganda bir fuqaroning ikkinchi bir fuqaroga va jamiyatga nisbatan befarq bo‘lmasdan daxldorlik hissi bilan yashashi tushuniladi. Befarqlik kayfiyatini jilovlab daxldorlik hissini shakllantirish fuqarolik pozitsiyasining muhim sharti hisoblanadi. Befarqlik kayfiyatini jilovlash uchun eng avvalo uni sababini topish kerak bo‘ladi. Befarqliknin sababi nodonlik hisoblanadi, nodonlikning sababi esa ma’naviy qashshoqlikdir. Demak, befarqlik kayfiyatini jilovlab daxldorlik hissini

shakllantirish uchun ma'naviyatni yuksaltirish kerak ekan. Muhtaram Prezidentimiz o'z chiqishlaridan birida befarqlik dushmanlik deb aytganlarida juda katta ma'no bor. Chunki befarq odam - menga nima, o'lib ketmaydimi degan qabilda yondashgan bo'ladi. Befarq odamda mas'uliyat bo'lmaydi, mas'uliyat esa har qanday faoliyatni samarali qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Aslida faoliyatni samarali qiluvchi ikkita asosiy omil: mas'uliyat va kompetentlik mavjud. Bulardan qaysi biri muhimroq desak mas'uliyat muhim deb aytish to'g'ri bo'ladi. Chunki bilimi bo'lsa-yu lekin befarq bo'lsa uning bilimidan na o'ziga va na jamiyatga foyda bor. Befarqliknin sababi bo'lgan ma'naviy qashshoqlikni qanday bartaraf qilish mumkin yoki ma'naviyatni qanday yuksaltirish mumkin degan savol kelib chiqadi. Bu o'ta murakkab savol, chunki insonni bilimini baholaydigan mezonlar aniq, lekin ma'naviyatini baholaydigan mezonlar aniq emas.

Ma'naviyatni yuksaltirish uchun eng avvalo ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan g'oyalar ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Bu borada SamDU professor o'qituvchilari tomonidan universitet rektori rahbarligida qo'llanma funksiyasini bajaradigan monografiya ishlab chiqilgan. Ushbu monografiya beradigan bilim va g'oyalar ma'naviyatni yuksaltirib befarqlik kayfiyatini jilovlashga xizmat qilar ekan uni oliv ta'lim tizimida yangi akademik fan sifatida joriy qilish taklifini berish mumkin. Murojaatda korrupsiyaga qarshi kurashda profilaktika ishlarini samarali qilish maqsadida halolik vaksinasi to'g'risida gapirildi. Bunday profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun oldin halollik vaksinasi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan yuqorida qayd qilingan monografiya halollik vaksinasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xalqimizni islohotlarga befarq bo'lmadan daxldorlik hissi bilan yashab hayotga ongli munosabatda bo'lib harakat qilishiga ishonamiz chunki murojaatnoma har birimizning hayotimizni baxtli qilishga qaratilgan chaqiruv hisoblanadi. Murojaatnomaga befarq bo'lmadan daxldorlik hissi bilan yashash davlat va jamiyat o'rtasida sheriklikni shakllantirib inson baxtliligining muhim sharti bo'lgan adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladi. Adolatli ijtimoiy tartib esa inson orzu qilayotgan baxtli hayotni muhim sharti hisoblanadi. Murojaatda belgilab berilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish xalqimiz hayotini baxtli qilishiga ishonamiz.

## **2-seminar. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.**

O'zbekiston totalitar tuzumdan, ma'muriy buyruqbozlik va rejali taqsimlash tizimidan voz kechib, zamon talablaridan kelib chiqib taraqqiyotning o'ziga xos yo'lidan rivojlanib bormoqda. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" deb nom olgan ushbu yo'l besh tamoyilden iborat bo'lib, uning muhim tamoyillaridan biri iqtisodiyotning mafkuradan xoli va siyosatdan ustuvorligi tamoyilidir. O'tgan tarixan qisqa davrda O'zbekistonning erishgan yutuqlari va jahon hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'lishi tanlangan yo'lning naqadar to'g'ri ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyotini ko'rsatuvchi eng muhim mezon – bu odamlar kayfiyatining ijobiyligi tomonga o'zgarib borishidir, chunki jamiyat taraqqiyoti odamlar hayotini farovon qilishga qaratilgan. Odamlar baxtli

yashaydigan farovon jamiyatning muhim belgisi – bu odamlar kayfiyatining yaxshi bo‘lib borishidir. Buni ko‘rsatuvchi mezon – ommaviy axborot vositalari orqali odamlar kayfiyatini ko‘tarishga qaratilgan ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarning ko‘payib borishidir. Oxirgi vaqtarda televideniyeda yaxshi kayfiyat beradigan kulgiga va xursandchilikka chorlovchi ko‘rsatuvalar ko‘paymoqda. Bu, o‘z navbatida, hayotning ijobiy tomonga o‘zgarib borayotganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi, chunki “qorni och odamning qulog‘iga gap yoqmaydi” deganlaridek kayfiyati yomon odama kuliga va xursandchilikka ehtiyoj bo‘lmaydi. Shuning uchun kuliga va yaxshi kayfiyatga chorlovchi ko‘rsatuvlarning ko‘payib borishi hayotning ijobiy tomonga o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatuvchi muhim indikator va mezon deb aytish mumkin.

Inson zoti tabiatan erkin mavjudot bo‘lganligi uchun insoniyat jamiyati ham mustaqil, erkin va ozod bo‘lishi lozim. Lekin hayot shunday shakllanganki, unda odamlar o‘z erkinliklaridan mahrum bo‘lib qolish holatlari uchrab turadi. Odamlar erkinliklarining poymol qilinishi va mamlakatlarning mustamlakaga aylanib qolishi ko‘pincha urushlar oqibatida yuz beradi. Lokal va global urushlar natijasida mag‘lub bo‘lgan u yoki bu mamlakat kuchliroq davlat ta’siriga tushib, o‘z mustaqilligini qo‘ldan berib qo‘yadi. Urushlarda mag‘lubiyatni keltirib chiqaradigan asosiy sabab – bu siyosiy parokandalikdir, siyosiy parokandalikning sababi esa adolatsizlikdir. Chunki adolatsizlik, albatta, norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Qaysi mamlakatda adolatsizlik, siyosiy parokandalik va norozilik kayfiyati kuchli bo‘lsa, o‘sha mamlakat, ertami-kechmi, o‘z mustaqilligini qo‘ldan boy beradi. Shuning uchun mustaqillikdan ham muhimroq narsa bormi deganda, ha, mustaqillikdan muhimroq narsa bor, bu adolatdir deb aytish mumkin. Chunki inson zoti shunday mavjudotki, u har qanday qiyinchilikka bardosh beradi, lekin adolatsizlikka toqat qila olmaydi. Adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatish vazifasi barcha vaqtarda eng murakkab muammo bo‘lib kelgan.

Tarixga nazar solsak, insoniyat jamiyati son-sanoqsiz urushlarni boshidan kechirganligini ko‘rish mumkin. Tarixchilar orasida “insoniyat tarixi – urushlar tarixi” degan aforizmning mavjudligi bejiz emas. Olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, butun insoniyat tarixi davomida 14,5 minga yaqin urushlar bo‘lib o‘tgan, ularda 3,6 mlrd.dan ortiq aholi halok bo‘lgan va ko‘plab mamlakatlar o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan boy berib qo‘ygan. Demak, mustaqillik abadiy fakt emas ekan, ya’ni mustaqillikni qo‘ldan boy berish ehtimoli mavjud ekan. Buni anglagan odam mustaqillikning ahamiyatini chuqurroq anglab oladi va mustaqillikni mustahkamlashga befarq bo‘lmay, daxldorlik hissi bilan yashaydi. Mustaqillikka nisbatan befarq bo‘lmaslik uchun inson nimaga nisbatan befarq bo‘lsa, o‘sha narsani yo‘qotishi mumkinligini bilishi lozim. Agar inson o‘z huquqlariga befarq bo‘lsa, huquqi paymol bo‘ladi, agar inson o‘z salomatligiga befarq bo‘lsa, salomatligiga putur yetadi va, xuddi shunday, inson mustaqilligiga befarq bo‘lsa, mustaqilligini qo‘ldan berib qo‘yishi mumkin.

Mustaqillikka erishish qanchalik qiyin bo‘lmasin, uni asrab qolish va mustahkamlash yanada marakkabroqdir. Mustaqillik inson uchun shunisi bilan muhimki, u insonga baxtli bo‘lishning muhim sharti bo‘lgan erkinlikni ta’minalashga sharoit yaratadi. Inson baxtli bo‘lishi uchun u nafaqat moddiy va ma’naviy jihatdan ehtiyojlari qondirilgan bo‘lishi, balki unda qo‘rquvsiz, erkin yashash hissi ham bo‘lishi lozim. Inson erkin bo‘lishi uchun u oldin mustaqil bo‘lishi kerak. Lekin mustaqillikka erishgan bilan birdaniga

erkinlikka erisha olmaydi, balki mustaqillik insonga erkin bo‘lishga sharoit yaratadi. Ana shu sharoitdan to‘g‘ri foydalana olgan millat o‘z mustaqilligini asrab qola oladi va mustahkamlaydi. Agar milliy mustaqillikka erishilsa-yu, lekin xalqning erkinligi ta‘minlanmasa, bunday mamlakat, ertami-kechmi, o‘z mustaqilligini qo‘ldan boy berib qo‘yadi.

Tarixga nazar solsak, mamlakatlar o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan berib qo‘yanliklariga ko‘plab misollar topish mumkin. Masalan, mamlakatimiz xalqlari XIII asrda mo‘g‘ullar zulmi ostiga tushib, o‘z mustaqilliklarini yo‘qotib qo‘yishgan. Xuddi shunday XIX asrda yurtimiz Rossiya koloniyasiga aylanib, o‘z mustaqilligini qo‘ldan boy berib qo‘yan. Har ikki holatda ham mustaqillikning qo‘ldan ketishiga mamlakatdagi siyosiy parokandalik sabab bo‘lgan. Har ikki holatda ham yana mustaqillikni qayta qo‘lga kiritish uchun qariyib ikki asr vaqt kerak bo‘lgan. Birinchi holatda, ya’ni mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lib, mustaqillikka erishishimiz uchun qariyib ikki asr kerak bo‘ldi va xalqimizni mustaqillikka olib chiqish ulug‘ bobomiz Amir Temurga nasib bo‘ldi. Ikkinci holatda, yana mustaqillika erishishimiz uchun qariyib bir yarim asr kerak bo‘ldi va bu safar xalqimizni mustaqillika olib chiqish Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovga nasib etdi. Har ikkala holatda ham mustaqillikka erishish uchun kurashlar va minglab qurbanlar bo‘ldi. Bunday holat takrorlanmasligi uchun mustaqillik abadiy fakt emasligini, ya’ni mustaqillik qo‘ldan ketish ehtimoli borligini unutmaslik va mustqillikni asrab avaylashimiz, mustahkamlashimiz lozim.

Mustaqillik qo‘ldan ketmasligi uchun odamlar mustaqillikdan kutgan orzu-umidlar ro‘yobini va, eng avvalo, erkin yashash imkoniyatini ta‘minlab berish lozim. Inson qo‘rmasdan, erkin yashashi uchun jamiyatda adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Qayerda adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilsa, o‘scha yerda odamlar erkin va baxtiyor bo‘lib yashaydi. Demak, inson baxtli bo‘lishi uchun erkin bo‘lishi kerak, erkin bo‘lishi uchun esa adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Mustaqillik ana shunday adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga sharoit yaratadi. Lekin muammo shundaki, ijtimoiy tartibni o‘rnatish qadimdan donishmandlarni va davlat rahbarlarini o‘ylantirib kelgan eng murakkab muammo bo‘lib kelgan. Hozir ham eng dolzarb va murakkab muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, mustaqillik o‘z o‘zidan adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatmaydi, balki unga sharoit yaratadi, xolos.

Ijtimoiy tartibni o‘rnatish uchun nazorat bo‘lishi kerakligi anglab olingan bo‘lishiga qaramasdan, ana shu nazorat tizimining samarali ishlab turishini ta‘minlaydigan mexanizmni shakllantirish qiyin kechmoqda. Jamiyatda adolatli ijtimoiy tartib o‘rnatilishi uchun nazorat tizimining samrali ishlab turishini ta‘minlaydigan davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo‘lgan mexanizm shakllangan bo‘lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, faqat yuqorida bo‘lgan davlat nazorati ijtimoiy tartibni o‘rnatish uchun yetarli emas, buning uchun jamiyat nazorati ham kerak. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari” tamoyili nazorat tizimida davlat va jamiyatning uyg‘unlikdagi nazoratini anglatadi.

Jamiyatning nazorat tizimida ishtirok etishi, eng avvalo, uning kuchli bo‘lishiga bog‘liq. Kuchli fuqarolik jamiyati kuchli fuqarolik jamiyati institutlaridan tashkil topadi. Kuchli fuqarolik jamiyati institutlari esa kuchli fuqarolardan tashkil topadi. Kuchli fuqarolar esa bilim va ma’naviyati yuksak shaxslardan tashkil topadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyasi nazorat ekanligini inobatga olsak, fuqarolarning nazoratga doir bilimlarini

oshirish eng ustuvor vazifalardan bo‘lishi lozim. Har qanday bilim ta’lim tizimida shakllangani kabi nazoratga doir bilim ham, eng avvalo, ta’lim tizimda shakllanadi. Shuning uchun ta’lim tizimida nazoratga doir bilimni kengroq berish zamon talabi hisoblanadi. Inson qayerda o‘qishidan qat’i nazar unga nazoratga doir bilim kerak bo‘ladi, chunki u kim bo‘lib va qayerda ishlashidan kat’i nazar nazorat tizimida ishtirok etishi kerak. Nazoratga doir bilimga ega bo‘lgan va uning negizida siyosiy-huquqiy madaniyati yuksalgan fuqarolargina o‘z nazorat funksiyalarini amalga oshirishga qodir bo‘lishadi. Buning uchun oliy ta’lim tizimida nazoratga doir bilimni beradigan fanlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim tizimida tashkil etiladigan nazoratga doir bilimni beradigan fanlar yoshlarimizni nazoratga doir bilim bilan qurollantirib, oradan ma’lum davr o‘tgach, o‘z nazorat funksiyasini amalga oshirishga va nazorat mexanizmining samarali ishlab turishini ta’minalashga qodir bo‘lgan avlodni shakllantiradi. Bunday nazoratga doir bilimni yoshlarga berish uchun o‘qituvchilarining o‘zida ham nazoratga doir bilim kuchli bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, nazorat mexanizmining shakllanish jarayonini tezlashtirish uchun nafaqat yoshlarga, balki aholining boshqa qatlamlari va, eng avvalo, o‘quvchilarga bilim beradigan o‘qituvchilarining o‘ziga nazoratga doir keng bilim berish kerak. Nazoratga doir bilimni jamiyatda keng targ‘ib qilish adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga qodir bo‘lgan kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishi kuchli nazorat tizimining shakllanishini anglatadi va adolatli ijtimoiy tartibni ta’minalaydi. Adolatli ijtimoiy tartibning o‘rnatilishi mustaqillikni mustahkamlashning va jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Aholi o‘rtasida nazoratga doir bilimni targ‘ib qilishga befarq bo‘lish milliy xavfsizligimizga bo‘lgan ichki tahdidga bee’tibor bo‘lish bilan tengdir. Bunday tahdiddan himoyalanish uchun faqat yuqorida amalga oshiriladigan davlat nazorati yetarli emas, buning uchun quyidan amalga oshiriladigan jamiyat nazorati ham kuchli bo‘lishi kerak.

Davlat nazorati funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazoratining afzal va muhim ekanligi haqida Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov: “Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug‘ullanuvchi davlat tuzulmalari va organlarini qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzulmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo‘l yo‘q,” – deganida tamoman haqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ijtimoiy tartibning barqarorligiga bog‘liq bo‘lganligi uchun, mamlakatimizda, siyosiy va iqtisodiy islohotlar uyg‘unlikda amalga oshirilmoqda, chunki ijtimoiy tartib, eng avvalo, siyosiy tizimning takomillashganligiga bog‘liq. Yaqin tariximizga nazar solsak, ya’ni 1985 yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda siyosiy islohotlar e’tibordan chetda qolganligi uchun iqtisodiy o‘sishni ta’minalab bo‘lmagan edi. Buni anglagan davlat rahbariyati 1988 yilda siyosiy islohotlarni amalga oshirishga harakat qiladi, lekin buning ham uddasidan chiqa olmaydi. Oqibat hammaga ma’lum, ya’ni dunyoning qudratli mamlakatlaridan biri barham topdi. Siyosiy islohotlardan maqsad iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishning muhim sharti bo‘lgan ijtimoiy tartibning barqarorligini ta’minalashdir.

Mamlakatda ijtimoiy tartib o'rnatalishi uchun jamiyatni intellektual elita boshqarishi, o'rta sinf kuchli bo'lishi va jamyatning ma'naviy yuksalishi muhim omillar ekanligi buyuk donishmandlar tomonidan asoslab berilgan. Mustaqil mamlakatimizda ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan har uchala omil ham shakllanib bormoqda. Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 18 yanvarda yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida ta'kidlanishicha, 2000 yilda o'rta sinf aholining 20%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda 50%ni tashkil qilganligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi yutuqlarimiz bilim, ya'ni intellektual elitaning rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasidagi yutuqlarimiz to'g'risida gapirganda, Fransiyaning dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" xalqaro biznes maktabini "Innovatsiyalarning global inqirozi" mavzusidagi ma'ruzasida O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishi bo'yicha 141 mamlakat ichida ikkinchi o'rinda turganligini e'tirof etganligini aytish mumkin.

Adolat yuzasidan shuni e'tirof etish kerakki, ijtimoiy tartibni o'rnatishda muhim omil bo'lgan ma'naviyatni rivojlantirish bilimni rivojlantirish darajasidan biroz orqada qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim-tarbiya tizimida uyg'unlik to'liq ta'minlanmasdan, tarbiya ta'limdan orqada qolmoqda. Bu global miqyosdagi muammo bo'lib, uni rivojlantirish uchun Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asaridagi g'oyalarni odamlar ongiga singdirish choralarini ko'rish lozim. Bu borada ommaviy axborot vositalarini, eng avvalo, televideniyening imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim. Bundan tashqari, axloqiy tarbiyada ma'rifiy Islom dinining tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki inson ma'naviyati – bu, eng avvalo, inson ruhining sog'lomligidir, ruh esa diniy tushuncha bo'lib, uni poklashda diniy tarbiya muhim rol o'ynaydi. Diniy tarbiya negizida ma'naviyatni yuksaltirish ijtimoiy tartibning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim omilni, ya'ni daxldorlik hissini shakllantiradi. Ijtimoiy tartibni ta'minlash uchun faqat intellektual elita va o'rta sinfning kuchliligi yetarli emas, buning uchun ma'naviyat ham yuksak bo'lishi lozim.

Ijtimoiy tartibning barqarorligi ta'minlanmagan joyda va, ayniqsa, bozor munosabatlari sharoitida taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi. O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari yo'lini tanladi va bu bozor munosabatlari sharoitida pul faktori birinchi o'ringa chiqadi, ya'ni qayerda pul bo'lsa, o'sha yer boyib boradi va qayerda pul bo'lmasa, o'sha yer qashshoqlashib boradi. Shuning uchun asosiy e'tibor mamlakatimizga investitsiyani kengroq joriy qilishga qaratilishi lozim. Buning uchun ijtimoiy tartib barqarorligi ta'minlangan bo'lishi lozim, chunki tarix shundan guvohlik bermoqdaki, qayerda ijtimoiy tartib o'rnatalgan bo'lsa, o'sha yerga investorlar ko'proq intilishadi. Ijtimoiy tartib huquq va axloq me'yorlariga rioya qilishning ta'minlanganlik holatidir. Agar huquq va axloq me'yorlariga rioya qilish ta'minlangan bo'lmasa, hech kim, jumladan, investorlar ham o'ziniadolatsizlikdan himoyalangan deb his qilaolmaydi. Har qanday odam uchun ham, investor uchun ham, eng muhimi, uning huquq va manfaatlari himoyalanganligiga ishonchdir. Bunday ishonch shakllanishi uchun ijtimoiy tartibning barqarorligi ta'minlangan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy tartibning barqarorligi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, uchta omilga, ya'ni jamiyatda intellektual elitaning kuchayib borishiga, o'rta sinfning kuchayib borishiga va,

nihoyat, uchinchi omil, ma’naviyatning yuksalib borishiga bog‘liq. Bu uch omildan biri, ya’ni ma’naviy yuksalish zamon talablaridan orqada qolmoqda. Buning sabablaridan biri ma’naviy yuksalishni belgilaydigan aniq mezonlarning ishlab chiqilmaganligidir. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yil yakunlariga bag‘ishlangan (2013 yil 18 yanvardagi) ma’ruzada ma’naviy yuksalishni ifodalovchi mezonlar aniq ko‘rsatilmagan. Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining vazifalari nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohaning rivojlanishini ta’minlaydigan rahbarlikni, balki ma’naviy yuksalishni ta’minlaydigan samarali rahbarlikni ham amalga oshirishdan iborat. Tashqaridan uncha ahamiyatga ega bo‘lmaganday ko‘rinadigan ushbu omil, aslida, eng muhim omil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ma’naviy yuksalishni baholaydigan mezonlarni ishlab chiqish va ularga asoslanib, ma’naviy yuksalishni baholab borish mexanizimini takomillashtirish lozim. Buning uchun ijtimoiy-gumanitar fan namoyandalari ma’naviy yuksalishni baholaydigan mezonlarni aniqlab berishlari lozim bo‘ladi.

Ma’naviyatni yuksaltirish uchun, eng avvalo, uni baholaydigan mezonlarni ishlab chiqish kerak ekan, asosiy e’tibor ana shu me’zonlarni ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Xo‘s, ma’naviyatni qanday mezonlar orqali baholash mumkin? Ushbu savolga javob berish uchun ma’naviyatning mohiyatini bilish lozim. Ma’naviyatning mohiyati – moddiy va ma’naviy boylikka bo‘lgan munosabatda ma’naviy boylikni ustun qo‘ya oladigan qalbiy hususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, ma’naviyatning mohiyati odamning moddiy ehtiyojlari jilovlanganlik holatidir. O‘z ehtiyojlarini jilovlagan odam o‘z ustidan hokimiyatga ega bo‘lgan bo‘ladi va bunday hokimiyat ma’naviyat orqali shakllanadi. O‘z ustidan hokimiyatga ega bo‘lgan odam o‘zini tiyib tura oladi va o‘zgalar manfaatini ham ifodalashga qodir bo‘ladi. Bu esa mamlakatda o‘zaro tiyib turish va manfaatlar mutanosibligining samarali tizimi shakllanishining muhim sharti hisoblanadi. Hozircha ko‘pchilik aholi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasida keltirilgan o‘zaro tiyib turish va manfaatlar mutanosibligi tamoyilini chuqur anglab olgani yo‘q. Vaholanki, ushbu tamoyil ijtimoiy tartibni o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega, chunki tartib bo‘lishi uchun odamlar o‘zaro munosabatda bir-birlarining manfaatlarini inobatga olishlari lozim. Buning uchun esa ular o‘zlarini tiyib turishga qodir bo‘lishlari lozim. Demak, ijtimoiy munosabatlarda o‘zaro tiyib turish va manfaatlar mutanosibligi tamoyili ma’naviyatning rivojlanishini baholaydigan asosiy mezonlardan biri bo‘lishi mumkin.

Ma’naviyatni baholaydigan mezonlardan yana biri – bu mamlakatda ma’naviy boylikka intilishning kuchayib borish darajasidir. Buning uchun, ya’ni odamlar ma’naviy boylikka intilib yashashlari uchun ma’naviyat qadrlanishi lozim. Inson nima qadrlansa, o‘shanga intilib yashaydi, agar jamiyatda moddiy boylik ko‘proq qadrlansa, moddiy boylikka intilish kuchayadi, agar ma’naviy boylik qadrlansa, ma’naviy boylikka intilish kuchayadi. Ma’naviyat qadrlanishi deganda, eng avvalo, ma’naviyat ahlining qadrlanishi tushuniladi. “Ma’naviyat yuksalishi uchun odamlar g‘oyani sevishlari kerak” deb yozgan edi yunon faylasufi Platon. Lekin g‘oyani sevish uchun g‘oya qadrlanishi lozim, ya’ni g‘oya mehnat mahsuli sifatida tan olinishi va qadrlanishi lozim. Oddiy qilib aytganda, g‘oyani moddiylashtirish, ya’ni tovarga aylantirish imkoniyati bo‘lishi kerak. Demak, ma’naviyatni baholashda intellektual mulk tushunchasining shakllanishi va uning rivojlanish darajasi ham muhim mezonlardan biri bo‘lishi mumkin.

Ma’naviyatni baholashda odamlardagi daxldorlik hissining rivojlanishi ham mezonlardan biri bo‘lishi kerak. Chunki ma’naviyati yuksak odamda iroda kuchli bo‘ladi, irodasi kuchli oda esa o‘zidagi befarqlikni jilovlab, daxldorlik hissi bilan yashashga qodir bo‘ladi. Bu mezon ham juda muhim ahamiyatga ega, chunki befarqlik kayfiyati kuchli bo‘lgan jamiyatda nazorat tizimi samarali ishlamaydi, demak, ijtimoiy tartibning barqarorligi ham ta’minlanmaydi. Jamiyatdagi befarqlik va daxldorlik hissining rivojlanish darajasiga qarab ma’navitga baho berish mumkin. Befarqlik kuchli bo‘lgan jamiyatda ma’naviyat past bo‘lsa, daxldorlik hissi yuqori bo‘lgan jamiyatda ma’naviyat yuksak bo‘ladi. Daxldorlik hissining darajasini aniqlashda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasidan kelib chiqish mumkin. Fuqarolik pozitsiyasi fuqarolik jamiyat shakllanishining muhim sharti hisoblanadi. Shu o‘rinda fuqarolik jamiyatining shakllanishida ma’naviy yuksalish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozim. Demak, ma’naviyatni baholashda jamiyatdagi daxldorlik hissining rivojlanish darjasini ham muhim mezonlardan biri bo‘lishi mumkin.

Odamning ma’naviyatiga baho berganda uning harakatiga qarab emas, balki harkatining ostida yotgan motiviga qarab baho beriladi. Inson harakatining motivi ratsional va irratsional yoki sog‘lom va nosog‘lom bo‘lishi mumkin. Jamiyatda sog‘lom motivli odamlarning ko‘payib borishi ma’naviyatning yuksalib borishini ko‘rsatib boruvchi muhim mezondir. Sog‘lom motivli odamlarning ko‘payishi ijtimoiy sog‘lomlikni ta’minlaydi va bu ijtimoiy sog‘lomlik darajasi ma’naviyatni baholash mezoni bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy sog‘lomlik darajasini aniqlash uchun oldin u nima ekanligini bilish kerak. Ijtimoiy sog‘lomlik deganda, azaldan mavjud bo‘lgan adolat bilan razolat o‘rtasidagi kurashda adolat g‘alaba qozongan muhit tushuniladi. Jamiyatda adolat g‘alaba qozonishi uchun sog‘lom motivli odamlar ko‘payishi lozim. Bu boradagi muammo shundaki, hech kim o‘zini nosog‘lom motivdaman deb hisoblamaydi yoki hech kim o‘zini razolat tomonidaman deb hisoblamaydi.

Motivning sog‘lom yoki nosog‘lom ekanligini aniqlash uchun ikkita savolga beriladigan javobdan kelib chiqish lozim bo‘ladi. Birinchisi, men uchun nima muhim, moddiy boylikmi yoki ma’naviy boylik? Ikkinchisi, men jamiyatda bo‘layotgan voqealarga nisbatan befarqmanmi yoki daxldor hissi bilan yashayapmanmi? Agar inson uchun ma’naviy boylik qadrliroq bo‘lsa va u jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi bilan yashayotgan bo‘lsa, demak, bu uning harakati motivining sog‘lomligi alomatidir. Sog‘lom motivli odamlarni tarbiyalashda nafaqat ta’lim-tarbiya tizimidan foydalanish, balki bu borada kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Bunda ommaviy axborot vositalaridan va, eng avvalo, uning samarali ta’sir vositasi bo‘lgan televide niye imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim. Bu borada televide niyeda odamlarning motivi sog‘lom yoki nosog‘lom ekanligini aniqlaydigan “Motiv” nomli ko‘rsatuvni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni ta’kidlash lozimki, markaziy televide niyedagi “Madaniyat va ma’rifat” nomli teleko‘rsatuvni “Ma’naviyat va ma’rifat” deb nomlash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Chunki, madaniyat tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, u ma’naviyat va ma’rifatning uyg‘unlikda rivojlanishini taqozo etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Bunda inson hayoti baxtliligining muhim sharti bo‘lgan mustaqillikni mustahkamlashga hamda jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lgan

ijtimoiy tartibni o‘rnatishga xizmat qiladigan intellektaul elitani va o‘rtalarning kuchayib borishi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Erishilgan yutuqlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish uchun adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishning uchinchi omili bo‘lgan ma’naviy yuksaklikni ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Hadis ilmining sultonni Imom Buxoriyning odamlarning najoti faqat bilimda va undan boshqasi bo‘limgay degan dono so‘zlarini davom ettirib, endi odamlarning najoti bilim va ma’naviyatda deb aytish to‘g‘iroqdir. Chunki Imom Buxoriy zamonidan bugunga qadar o‘tgan vaqt davomida insoniyat jamiyatida ma’naviyat qashshoqlashib bordi va natijada axloqsizlikni madaniyat deb tushunish kelib chiqdi. Ma’naviy qashshoqlik nafaqat ijtimoiy tartibga va jamiyat taraqqiyotiga putur yetkazadi, balki, hech qanday mubolog‘asiz insoniyatning kelgusida yashab qolishini ham gumon qilib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda ma’naviyatni rivojlantirish masalasi, nafaqat gapda, balki amalda eng dolzarb muammo va eng ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

### **3-seminar: O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi**

Reja:

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.
2. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari: - Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishini tahlil etish; - Kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichlari va rivojlantirilishini o‘rganish; - Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishini ochib berish; Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Klaster” interfaol usulidan foydalaniladi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi. Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

1. Ijtimoiy siyosat
2. Modernizatsiya
3. Diversifikatsiya
4. Konsepsiysi
5. “O‘zbek modeli”
6. Harakatlar strategiyasi
7. Monopoliya
8. Bank-kredit tizimi
9. Soliq tizimi
10. Infiyatsiya

### **4-seminar. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minalash, davlat boshqaruviga yangicha uslublarni joriy etish.**

Bosh maqsadimiz bo‘lgan ozod va obod, farovon jamiyat qurish asosida xalqimizning baxtli hayot kechirishini ta’minalash uning **milliy yuksalishi** bilan bog‘liq. Shuning uchun O‘zbekistonning eng yangi tarixi milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari g‘oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan xarakterlanadi. Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tib borayotgan mamlakatimizda xalqimizni baxtli, hayotini farovon qilish borasida keng

ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ushbu xususda gapirib, “Mustaqillik tufayli biz dunyo hamjamiyatining teng huquqli a’zosi bo‘lib, yorug‘ kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan buniyod etmoqdamiz. Istiqlol yillarda erishgan yutuqlarimizga tayanib, **milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari** dadil qadam qo‘ymoqdamiz. Mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida Harakatlar strategiyasini qabul qildik.”<sup>4</sup>, – deb alohida ta’kidladi. Muhtaram Prezidentimizning ushbu so‘zlari milliy yuksalish jarayonidagi ishlarimizning yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladigan omillarni topish bugungi kunning eng dolzarb muammosi ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bunday omillarni shakllantirish ilmiy yondashuvni talab qiladi, chunki yuksalish qonuniyatlarini topish jamiyatshunos olimlarning vakolati hisoblanadi. Jamiyatshunos olimlarimiz, jumladan, tarixchilar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan omillarni aniqlashga va ularni ta’minlashga qaratilgan tadqiqotlarni olib borishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun, eng avvalo, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti nima ekanligini aniqlab olish va o‘sandan kelib chiqib fikrlash kerak. Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lib adolatli ijtimoiy tartibning o‘rnatilganligi xizmat qiladi. Bunday tartibning o‘rnatilganligi nazorat faoliyatiga, aniqroq aytganda davlat va jamiyatning sheriklikdagi nazorat faoliyatiga bog‘liq bo‘lmoqda. Adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga qodir bo‘lgan nazorat tizimini shakllantirish masalasi jamiyatshunos olimlarning dolzarb izlanish ob‘ekti bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonda siyosiy fanlarning rivojlanishi asosan mustaqillik yillarda boshlanganligini va o‘tgan yillar tarix uchun uncha katta davr emasligini inobatga olsak siyosiy mavzulardagi izlanishlarni, jumladan, adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishda nazorat faoliyatining o‘rn masalasi mavzusini yetarli darajada o‘rganilmaganligini ko‘rish mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramasdan mustaqillik yillarda nazorat faoliyatining ilmiy-nazariy asoslariga va jamoatchilik nazoratiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.<sup>5</sup>

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади.

3-том. Тошкент – “Ўзбекистон” – 1919 й., 88-бет.

5 1.Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик барча даражадаги раҳбарларнинг кундалик хаёт қоидаси бўлиши керак. Тошкент. Ўзбекистон. 2017 йил.

2. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 йиллварда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг беш устувор йўналиши бўйча Ҳаркатлар стратегияси. Тошкент. Ўзбекистон. 2017 йил.

4.Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т. Ўзбекистон. 2010 й.

5.Бафоев Ш. Жамоатчилик назорати демократик хуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти куришнинг мухим омили сифатида // Ижтимоий фикр. Инсон хукуқлари. – 2007 № 1.

6.Мустафоев М. Жамоатчилик назорати – жамият мувозанати // Мулоқот 2004 й. № 4

7.Мухторов Н. Амнистия актларини қўлланилишида жамоатчилик назорати: давлат бошқарув органлари ва фуқаролик жамияти институтларининг ҳамкорлиги // Фуқаролик жамияти – Гражданское общество – Civil Society. 2010 й. № 3

8.Набиев Т., Солеев А. Ўзини ўзи бошқариш органлари жамоатчилик назоратининг субъекти сифатида // Фуқаролик жамияти – Гражданское общество – Civil Society. 2008 й. № 4

9.Набиев Ф. Обеспечение и совершенствование общественного контроля в программных документах политических партий Узбекистана // Фуқаролик жамияти – Гражданское общество – Civil Society. 2010 № 3

10.Набиев Ф. Ижтимоий назорат. Самарқанд. 2016 йил.

11.Насриев И. Далнейшее совершенствование системы общественного контроля // Фуқаролик жамияти – Гражданское общество – Civil Society. 2010 й. № 3

12.Чоршанбиев Ж. Фуқаролик жамияти шаклланишида жамоатчилик назоратининг аҳамияти // Демократлаштириш ва инсон хукуқлари. 2008 й. №2

13.Ҳакимов Р. Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этишда жамоатчилик назоратини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари // Фуқаролик жамияти – Гражданское общество – Civil Society. 2010 й. № 3

14.Хафизов Т. Жамоатчилик назорати ижтимоий адолат кафолатидир // Жамият. 2007 й. 9 – июн

Albatta ushbu asarlar, ilmiy ishlar nazorat faoliyatini o'rganishda ilmiy metodologik asos bo'lib xizmat qilishda va nazorat tizimining muhim elementi bo'lgan jamoatchilik nazoratining rivojlanishi masalasini ilmiy jihatdan tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega. Lekin ular asosan nazorat tizimining u yoki bu elementiga bag'ishlangan bo'lib, uni tizim sifatida o'rganish va jamoatchilik nazoratini samarali qilishda nazorat faoliyatiga doir bilimni ishlab chiqish masalasi nazardan chetda qolib kelgan. Vaholanki, nazorat samarali bo'lishi uchun u tizim shaklida bo'lishi va nazorat faoliyati ushbu faoliyatga doir bilim bilan qurollangan bo'lishi lozim. Agar nazorat tizim shaklida bo'lmasa, ya'ni nazoratni faqat yuqorida davlat amalga oshirsa va jamiyat nazoratda ishtirok etmasa bunday nazorat ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lmaydi. Buning uchun nazorat borasida davlat bilan jamiyat o'rtasida ijtimoiy sheriklik o'rnatilgan bo'lishi kerak. Ijtimoiy sheriklikka asoslangan nazorat faoliyatini samarali qilish esa uni tizim sifatida ilmiy tadqiq qilishni va uni tarixini o'rganishni taqozo etadi. Fuqarolik jamiyat nazorat tizimining muhim elementi hisoblanadi va davlat nazorati bilan birgalikda nazorat tizimini tashkil qiladi. Nazorat faoliyatiga doir bilim bilan qurollangan ana shunday nazorat tizimiginaadolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'ladi. Nazorat faoliyatini rivojlanishi masalasi kompleks tarzda o'rganilmagan bo'lib, ushbu izlanish nazorat faoliyatini samarali qilishga xizmat qiladigan bilimlarni ishlab chiqishga undaydigan tadqiqotlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lganadolatli ijtimoiy tartib nazorat faoliyatiga, nazorat faoliyatining samradorligi esa nazoratga doir bilimga bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risida gapirishdan oldin milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari tushunchasining mazmun-mohiyatini anglab olish lozim. **Milliy tiklanish deganda mustamlaka mamlakatning milliy davlatchiligining tiklanishi va mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishi bilan bog'liq jarayon tushuniladi.** Mustamlaka mamlakatlar milliy tiklanish partiyasini tuzib, yillar davomida kurashib, minglab qurbanlar berib, mustaqillikka erishadi. Mustaqillikka erishish bilan milliy davlatchilikning tiklanish jarayoni boshlanadi va bu tiklanishdan yuksalishga o'tish uchun faqat mustaqillikning o'ziga yetarli emas. Mustaqillik o'z-o'zidan yuksalishni ta'minlamaydi, balki yuksalish uchun sharoit va imkoniyat yaratadi, xolos. Mustaqillik beradigan ana shunday imkoniyatdan foydalana olgan davlat o'z yuksalishini ta'minlay oladi va jahonda rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallaydi. Buning uchun, eng avvalo, mustaqillikning ahamiyatini va u beradigan imkoniyatlarni chuqur anglab olish kerak bo'ladi.

Mustaqillikning ahamiyati shundan iboratki, mustaqil davlat o'z xalqiga insonlar baxtli bo'lishining muhim sharti hisoblangan erkinlikni beradi. **Erkinlik nafaqat baxtli hayotning, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim sharti hisoblanadi.** Lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek mustaqillik beradigan erkinlik o'z-o'zidan taraqqiyotni ta'minlamaydi balki unga sharoit yaratadi xolos. Buning uchun yana bir sharoit, ya'niadolatli ijtimoiy tartib o'rnatilgan bo'lishi kerak. **Qachon va qayerdaki mustaqillik va adolatli ijtimoiy tartib o'rnatilgan bo'lsagina, o'sha vaqtida va o'sha joyda yuksalish bo'ladi.** Demak, mustaqillik bergen milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish uchun mamlakatdaadolatli ijtimoiy tartib o'rnatilgan bo'lishi lozim. Bunday tartibning o'rnatilishi

15. Ниёзов М. “Ўзбекистоннинг демократик ривожланиши ва жамоатчилик назорати” ўкув қўлланмаси. Т.: ЙОМОМ. 2012

esa demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining kuchlilik darajasiga bog‘liq. Chunki demokratiya va fuqarolik jamiyati adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishning eng maqbul yo‘li hisoblanadi. Shunday qilib **milliy yuksalish deganda mustaqil mamlakatda adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatish va ijtimoiy taraqqiyotni yuksak bosqichga ko‘tarish asosida xalqimiz hayotini baxtli qilish jarayoni tushuniladi.**

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi vazifalarni amalga oshirish uchun demokratiyaning mohiyatidan kelib chiqib harakat qilish kerak. Demokratiya sharoitida xalq hokimiyatga emas, balki hokimiyat xalqqa xizmat qilishi kerak. Buning uchun esa, eng avvalo, hokimiyat **xalqning dardini bilishi** va mavjud ijtimoiy muammolarni aniqlab olishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan 2017 yilning 7 fevralida tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining birinchi bosqichi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb nomlandi. Muammolar aniqlab olingandan so‘ng Harakatlar strategiyasining ikkinchi bosqichi bo‘lgan 2018 yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nom berildi. Bozor munosabatlari sharoitida pul omilining birinchi o‘ringa chiqishi va iqtisodiy **rivojlanish investitsiyaga bog‘liq** bo‘lganligi sababli Harakatlar strategiyasining uchinchi bosqichi, ya’ni 2019 yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nomlandi. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g‘oyasining talablaridan va taraqqiyotning muhim sharti ilm-fan yutuqlariga asoslanish ekanligidan kelib chiqib, 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berildi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy ketma-ketlikda bir biriga bog‘langan bosqichlardagi vazifalarning samarali amalga oshirilishi **adolatli ijtimoiy tartibning o‘rnatilganligiga bog‘liq**.

Milliy yuksalishning muhim sharti bo‘lgan **adolatli ijtimoiy tartib** o‘rnatilishi demokratik siyosiy tartibotga bog‘liq. O‘zbekistonda shakllanayotgan demokratik **davlatning asosiy vazifasi** adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishdan iborat. Shuning uchun adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatish muammosi fan faoliyatining ham eng dolzarb muammosi bo‘lishi lozim. Chunki, fan muammosining dolzarbligi zamon talabidan kelib chiqadi va davlat tomonidan belgilab beriladi. Tarixga nazar solsak, barcha davrlarda ijtimoiy tartib muammosi jamiyatshunos olimlar oldida turgan eng dolzarb va eng murakkab muammo bo‘lib kelgan. Masalan, yunon faylasufi Platon “Davlat” nomli asarida ijtimoiy tartib o‘rnatilishi uchun jamiyatni **intellektual elita boshqarishi kerak** deb yozadi. Qadimgi dunyo faylasuflaridan yana biri Aristotel o‘zining “Siyosat” nomli asarida asosiy e’tiborni jamiyat strukturasini tahlil qilishga qaratgan va jamiyatda tartib bo‘lishi uchun “**o‘rta sinf kuchli bo‘lishi kerak**”<sup>6</sup>, – deb yozadi.

G’arb olimu donishmandalaridan farq qilib, Sharqda ijtimoiy tartibni o‘rnatishda asosiy e’tibor ma’naviyatni yuksaltirishga qaratilgan. Masalan, qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy ta’limotida ijtimoiy tartibni o‘rnatishda ma’naviy yuksaklikka alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rish mumkin. Konfutsiy insoniyat jamiyatida ma’naviyatning roli yuqori ekanligini quyidagicha ko‘rsatgan: “Agar jamiyat qonunlar yordamida boshqarilsa va tartibot jazolashlar vositasida amalga oshirilsa, odamlar jazolashlardan o‘zlarini olib qochishga intiladilar, lekin ular o‘zlarida **or-nomusni his qilmay qo‘yadilar**; agar jamiyat axloq vositasida boshqarilsa, tartibot axloqiy qadriyatlar bilan ta’mirlansa, odamlar or-

<sup>6</sup>. Рубанов А.В. Социальный порядок: традиции и современные подходы к изучению. Журн. Белорус. Гос. Ун-та. Философия. Психология. 2017. №1. С. 46.

nomusni his qiladilar, halol va sofdir bo‘ladilar”<sup>7</sup>. Konfutsiy ijtimoiy tartib o‘rnatishni axloqiy tarbiya negizida ma’naviyatni yusaltirish bilan bog‘laganligini tushunish qiyin emas. Sharq Arastusi deb nom olgan Abu Nasr Farobiyning asarlarida ham ijtimoiy tartibni o‘rnatishda ma’naviyatga alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda ham ijtimoiy tartib muammosi fan faoliyatining dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda, chunki hali hanuz insoniyat qanday qilsak jamiyatda tartib bo‘ladi, degan savolning mukammal javobini topa olgani yo‘q. Ushbu muammoning yechimi fan faoliyatiga, va, eng avvalo, ijtimoiy-gumanitar fanlarga, jumladan, tarix faniga bog‘liqdir. Shuning uchun ijtimoiy tartibni o‘rnatish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida, eng avvalo, tarix fanining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berish lozim. Tarixiy bilimsiz biror-bir ijtimoiy fan rivojlana olmaydi, aniqroq qilib aytganda, faylasuf ham, sotsiolog ham, politolog ham, iqtisodchi ham, psixolog ham faqat tarixiy bilim negizidagini tadqiqot olib borishi mumkin. Chunki tarixiy bilim insonga fikrlash uchun kerak bo‘lgan materialni berada va uning tafakkurini rivojlantiradi.

Umuman, tarixni bilmasdan turib inson savodli bo‘lishi mumkin emas, chunki tarixiy bilim, yuqorida ta’kidlaganimizdek, tafakkurni rivojlantirib, barcha ijtimoiy fanlarning negizini tashkil qiladi. Mashhur donishmandlardan birining tarixni bilmagan odam ma’lumotli bo‘la olmaydi va o‘zini tasodif deb hisoblashi lozim, deb yozgani bejiz emas. Mustaqillik sharofati bilan bizda o‘z tariximizni ob’ektiv o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi va shuning uchun ham bugungi kunda O’zbekiston tarixini o‘rganish milliy g‘oya ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lishi lozim. Eng avvalo, “O’zbekiston tarixini xolisona, ob’ektiv o‘rganishda mustaqillikning ahamiyati” va “Milliy davlatchiligidizning tiklanishida mustaqillikning ahamiyati” mavzularida ilmiy tadqiqotlar olib borish lozim, chunki **milliy g‘oyaning asosida mustaqillikni anglash yotadi.**

Tarixiy tadqiqotlar milliy

g‘oya ruhida bo‘lishi uchun tarixiy jarayon xronologik ketma-ketlikda o‘rganilib, vatanni tashqi dushmanidan himoya qilish va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar tarixiga alohida e’tibor qaratish lozim. Aytaylik, 1916 yil qo‘zg‘aloni mardikorlikka bormaslik uchun kurash tarzida kelib chiqqan bo‘lsa ham, uning mohiyatida istiqlol g‘oyasi yotganligini ochib berish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqot hisoblanadi. Bundan tashqari, totalitar sho‘rolar zamonida minglab ziyolilarning istiqlol g‘oyasi uchun qurban bo‘lganliklarini ham alohida tadqiqot mavzusi sifatida yanada kengroq o‘rganish lozim. Sho‘ro mustabid tuzumining rivojlanish imkoniyatlari tugaganligini yorituvchi “Ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitar sho‘ro tuzumidagi xato va kamchiliklar” mavzusidagi ilmiy tadqiqot bozor munosabatlari yo‘lini tanlagen va davlatni demokratlashtirish, jamiyatni liberallashtirish yo‘lidan borayotgan mamlakat uchun muhim tarixiy saboq bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng dolzarb muammosi, yuqorida ta’kidlanganligidek, ijtimoiy tartibni o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun tarixchilar tomonidan **o‘tmishda ijtimoiy tartib qanday qilib o‘rnatilganligini tarixiy tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.** Shuning uchun tarixchi olimlar, insoniyat tarixini ijtimoiy tartibni o‘rnatish nuqtai nazaridan o‘rganishlari zamon talabi hisoblanadi deb aytish mumkin. Insoniyat tarixinining turli davrlarida ijtimoiy tartib qanday o‘rnatilganligini tadqiq qilish bugungi kunda tartibni o‘rnatish borasida muhim amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini

3. История политических и правовых учений. Древний мир. М.: Наука, 1985. с.170.

beradi. Bu borada buyuk bobokalonimiz Amir Temur davrida ijtimoiy tartibni o'rnatish va, umuman, o'sha davr tarixiy tajribasini o'rganish va ijodiy qo'llash alohida ahamiyatga ega. Chunki Amir Temur bobomiz zamonasida ijtimoiy tartibni o'rnatish "Kuch –adolatda" tamoyili asosida amalga oshirilgan. Bugungi kunda ushbu tamoyilni ijodiy qo'llash taraqqiyotning o'zbek modeli tamoyillaridan biri bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sobiq sho'rolar zamoni va mustaqillik davri tarixiga ijtimoiy tartibni o'rnatish nuqtai nazaridan qarash bugungi kunda ijtimoiy tartibni o'rnatish borasida muhim tarixiy saboq bo'lishi mumkin. Sobiq sho'rolar davlatida XXasrning 70-yillarga kelib turg'unlik va inqiroz alomatlari namoyon bo'la boshladi. Bunday holatning kelib chiqishi mamlakatdagi buzuq byurokratiya va **korrupsiya illatida namoyon bo'lgan ijtimoiy tartibsizlik bilan bog'liq edi**. Shuning uchun sho'rolar davlati oliy rahbariyati ijtimoiy tartibni saqlash maqsadida jamiyat nazoratini joriy qilishga xizmat qiladigan qonun qabul qiladi<sup>8</sup>. Chunki, faqat davlat nazoratining o'zi bilangina ijtimoiy tartibni o'rnatish ilojsiz ekanligi yaqqol namoyon bo'lgan edi. Ular ijtimoiy tartibni o'rnatish uchun nazorat jarayoniga jamiyatni ham jalb qilish kerakligini tushunib yetishgan va anglab olishgan edi. Lekin ushbu qonun asosida tashkil topgan xalq nazorati qo'mitalari ularga yuklatilgan vazifani, ya'ni **jamiyat nazoratini tashkil qila olmadilar** va buning oqibatida sho'rolar mamlakati parokandalikka uchrab, barbod bo'ldi. Endi yangi tashkil topgan mustaqil mamlakatlar bundan tegishli xulosa chiqarib, ijtimoiy tartib muammosini o'zлari mustaqil ravishda hal qilishlari kerak bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar – demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirib, **mamlakatda mukammal nazorat jarayonini shakllantirishga qaratilgan**. Buni 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan Parlamentning qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bayon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi" va 2017 yil 7 fevralda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da nazorat tizimini takomillashtirish borasidagi takliflardan yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu takliflaradolatli ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan davlat boshqaruvi va nazoratini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiysi va Harakatlar strategiyasida asosiy e'tibor nazorat tizimining samarali ishlab turishini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirish va uning huquqiy asosini yaratishga qaratilgan. Xususan, qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi, "O'zbekistonda jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi va boshqa qonunlar nazorat mexanizmining huquqiy assosi bo'lib xizmat qiladi. Nazorat faoliyatini samarali qilishda ochiqlik to'g'risidagi qonun muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Chunki, ochiqlik ta'minlanmagan holda demokratiya ham, fuqarolik jamiyatni ham kuchli bo'la olmaydi.

<sup>8</sup> "СССРда ҳалқ назорати тўғрисида"ти қонун. 30 ноябрь 1979 йил.

Albatta, nazorat jarayonining samarali ishlashi uchun huquqiy asos muhim ahamiyatga ega, lekin, shu bilan birgalikda, ushbu qonunlarning ishlashi uchun kerak bo‘lgan siyosiy-huquqiy madaniyat yanada muhimroq ahmiyatga ega. Shuning uchun mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiysi va Harakatlar strategiyasida jamiyatning siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tarixchi olimlarimiz ham o‘zlarining munosib o‘rinlariga ega bo‘lishlari lozim. Buning uchun **insoniyat tarixini siyosiy-huquqiy madaniyat prizmasi orqali o‘rganish** maqsadga muvofiq. Bu borada asosiy e’tibor bilim va ma’naviyatning uyg‘unlikda rivojlanishini ta’minlashga qaratilishi lozim. Chunki siyosiy-huquqiy madaniyat siyosiy-huquqiy bilim va ma’naviyat negizida shakllanadi.

Jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksaklik darajasi nafaqat nazorat tizimi jarayoni ishslashining, balki, umuman demokratlashtirish jarayonining ham eng muhim sharti hisoblanadi. Chunki demokratiya o‘rnatalishi uchun, eng avvalo, demokratiya sharoitida yashay oladigan va fuqarolik pozitsiyasi shakllangan shaxslar kerak. Agar jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyati yetarli bo‘lmasa, demokratiya namoyon bo‘lmaydi va oxlokratiyadan farq qilmay qoladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Aristotel o‘zining “Siyosat” nomli asarida demokratiya to‘g‘risida gapirib, unga salbiy baho bergen va demokratiya boshqaruvning yomon shakli deb aytgan. Chunki Aristotel zamonida odamlarning siyosiy-huquqiy madaniyati past bo‘lgan va, demak, demokratiya talablari darajasida bo‘lman. Agar bugungi kunda ham jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyati zamon talablariga javob bermasa, demokratiya yuzaga kelmaydi va u, ya’ni demokratiya oxlokratiyadan farq qilmay qoladi. Shuning uchun, bugungi kunda mamlakatimizda, asosiy e’tibor jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish masalalariga qaratilmoqda. Bugun bizlarda demokratiyaning shakli bor, endi biz ana shu shaklga munosib mazmunni yaratishimiz kerak. Mazmun deganda siyosiy-huquqiy madaniyati shakllangan va demokratiya sharoitida yashashga qodir bo‘lgan jamiyat tushuniladi. Ana shunday jamiyat shakllanishi demokratiya va fuqarolik jamiyatining muhim sharti hisoblanadi. Buning uchun tarixchi olimlarimiz zamon talabidan kelib chiqib, keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishlari lozim.

**Zamon talabi esa, mamlakatimizda demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish hisoblanadi. Shuning uchun tarixchilar demokratiya va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi g‘oyalarni ishlab chiqishlari lozim.** Buning uchun demokratiya va fuqarolik jamiyatining talabidan kelib chiqib fikrlash lozim. Demokratiya ham, fuqarolik jamiyati ham nazorat faoliyati bilan bog‘liq. Chunki demokratiya bu nafaqat hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishi, balki nazorat qilinishi hamdir. Fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyasi hokimiyat tomonidan huquq va axloq normalariga rioya etilishini nazorat qilishdan iborat. Nazorat faoliyati kuchayishi uchun esa jamiyatning nazorat faoliyatiga doir bilimi kuchli bo‘lishi kerak. Hozirgacha oliy ta’lim tizimida biror-bir fan jamiyatga nazoratga doir bilimni berayotgani yo‘q. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish nazorat faoliyatiga doir bilimga ehtiyojni keltirib chiqaradi. **Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, nazorat faoliyatiga doir bilimni ishlab chiqish, nafaqat tarixchilar, balki barcha jamiyatshunos olimlarning kompleks yondashuvini taqozo etadigan zamon talabi hisoblanadi.**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy yuksalish adolatli ijtimoiy tartibga, tartib esa nazorat faoliyatiga bog‘liq ekan asosiy e’tibor nazorat faoliyatini takomillashtirishga qaratilmog‘i lozim. Nazorat faoliyatini takomillashtirish, har qanday faoliyat bilan bo‘lgani kabi, o‘scha faoliyatga doir bilimga bog‘liq. **Insoniyat jamiyatida nazorat faoliyatining o‘rnini, uning vujudga kelishi va rivojlanishi masalasi tarixchi olimlarimizning bugungi kundagi eng dolzarb muammosi hisoblanadi.** Ushbu mavzuda olib boriladigan tadqiqotlar jarayonida shakllanadigan bilimlarni jamiyatga berish demokratiya va fuqarolik jamiyat sharoitida yashashga qodir bo‘lgan avlodni tarbiyalaydi. Ana shunday avlod milliy yuksalishning muhim sharti bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga va xalqimiz hayotini baxtli qiladigan davlatni shakllantirishga qodir bo‘ladi.

Milliy yuksalishning muhim sharti bo‘lgan adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatishga qodir nazorat tizimini shakllantirishga xizmat qiladigan quyidagi ilmiy – amaliy takliflarni berish mumkin:

- 1.Nazorat faoliyatiga doir bilimlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishga keng sharoit yaratish;
- 2.Ishlab chiqilgan nazorat faoliyatiga doir bilimlarni talabalarga berish maqsadida oliv ta’lim tizimida maxsus fanni joriy etish;
- 3.Demokratiya va fuqarolik jamiyatini kuchli qilish maqsadida jamiyatga nazorat faoliyatiga doir bilimni berish choralarini ko‘rish;
4. Nazorat faoliyatiga doir kompleks bilimlarni ishlab chiqish va yoshlarni ongiga singdirish jarayonini samarali qilish maqsadida oliv o‘quv yurtida kafedra ochish;

## **5-seminar. Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi**

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:

- Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni tahlil etish;
- O’zbekistonda chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanishini ochib berish;

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Konseptual jadval” interfaol usulidan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sabab va omillari hamda muammolar yechimi
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarning sabab va omillari hamda muammolar yechimi
3. Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning sabab va omillari hamda muammolar yechimi

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
- muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi(1-ustun)
- Voqeliklarning sabab va omillari bilan ( 2-ustun) to‘ldiriladi
- Muammoning yechimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
- Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun)

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri

- “Aqliy hujum” interfaol usulidan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Liberal nima?
2. Liberalashuv nima?
3. Ijtimoiy yordam vositalarning vazifasi qanday?
4. Ombutsman nima?
5. Fuqarolik jamiyatni bu- ...
6. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lidagi harakatlar bu- ...
7. Sug‘urta tizimi bu- ...
8. Kasaba uyushmalari bu- ...
9. Sud mustaqilligi bu -...

## **6-seminar. Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar**

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:

- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo

munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining tuzilishini tahlil etish;

- Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining vazifalari va funksiyalarini olib berish; Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “T - chizma” interfaol usulidan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar: +ijobiy, -salbiy
2. Millatlararo munosabatlar: +ijobiy, -salbiy
3. Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari: +ijobiy, -salbiy

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

“T – sxema” o‘tkazish bosqichlarini qo‘yidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “T – sxema” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim

- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak

- “T – sxema” interfaol usuli masala mohiyatini to‘liq tushunib olishga asoslangan bo‘lib, bunda mavzu oid bo‘lgan tushuncha, ma’lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+,

salbiy – xususiyatlari olib beriladi.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Insert” interfaol usulidan foydalaniladi.

## V. GLOSSARIY

| <b>Termin</b>         | <b>O'zbekcha izohi</b>   | <b>Inglizcha izohi</b>   |
|-----------------------|--|--|
| <b>Islohot –</b>      | mavjud tuzumni asoslarini saqlab qolgan holda ijtimoiy hayotni u yoki bu sohasini o'zgartirish   | to change this or that sphere of social life while preserving the foundations of the existing system   |
| <b>Baxt –</b>         | qo'rquvsiz erkin yashash hissi ta'minlangan holda moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning to'liq qondirilganlik holati                         | a state of complete satisfaction of material and spiritual needs while ensuring a sense of freedom without fear  |
| <b>Nazariya –</b>     | ob'ektiv dunyoni rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradigan g'oyalar tizimi   | a system of ideas that reflects the laws of development of the objective world   |
| <b>Konsepsiya –</b>   | voqeylekni tushunish shakli, biror narsa to'g'risidagi qarashlar tizimi, asosiy fikr.  | a form of understanding reality, a system of views about something, a basic idea.  |
| <b>Liberalizm –</b>   | shaxs huquq va manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatidan ustunligiga va inson faoliyatini erkinlashtirishga asoslangan siyosiy mafkura | a political ideology based on the supremacy of the rights and interests of the individual over the interests of the state and society and the liberalization of human activity |
| <b>Korrupsiya –</b>   | mansabdor shaxslar bevosita ishtirok etadigan poraxo'rlikning uyushganlik holati   | an organized state of corruption in which officials are directly involved  |
| <b>Byurokratiya –</b> | rasmiyatçilikka asoslangan professional boshqaruvchilar qatlami  | a layer of professional managers based on formality  |

|                              |  |   |
|------------------------------|--|---|
| <b>Oxlokratiya –</b>         | o‘z manfaatini davlat institutlarisiz ommaviy bosim orqali ifodalaydigan olomon hokimiysi  | a crowd power that represents its interests through mass pressure without state institutions  |
| <b>Demokratiya –</b>         | hokimiyat xalq tomonidan shakllantirilishi va nazorat qilinishida namoyon bo‘ladigan xalq hokimiysi                                    | the power of the people, which is manifested in the formation and control of power by the people  |
| <b>Fuqaraolik jamiyati –</b> | individlarning kundalik ehtiyojlari qondiriladigan fuqarolar birlashmasining majmui  | a set of civic associations that meet the daily needs of individuals  |
| <b>Ijtimoiy tartib –</b>     | jamiyatda qabul qilingan normalarga rioya etish ta’milanganlik holati  | the state of compliance with socially accepted norms  |
| <b>Nazorat –</b>             | jamiyatda qabul qilingan normalarga rioya etilishini ta’minalashga xizmat qiladigan mexanizm faoliyati                                 | the operation of a mechanism to ensure compliance with accepted norms in society  |
| <b>Respublika –</b>          | umumxalq saylovlarasi asosida shakllanadigan davlat shakli   | a form of government formed on the basis of popular elections   |
| <b>Milliy tiklanish -</b>    | mustamlaka mamlakatning milliy davlatchiligining tiklanishi va mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tishi bilan bog‘liq jarayon               | a process associated with the restoration of the national statehood of a colonial country and its transition to the path of independent development |
| <b>Milliy yuksalish -</b>    | mustaqil mamlakatda adolatli ijtimoiy tartibni o‘rnatish va ijtimoiy taraqqiyotni yuksak bosqichga ko‘tarish asosida xalqimiz hayotini | the process of making the life of our people happy on the basis of establishing a just social order and raising social development to a             |

|   |   |  |
|---|---|--|
|   | baxtli qilish jarayoni  | higher level in an independent country   |
| <b>Siyosiy madaniyat –</b>                    | siyosiy bilim va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish tajribasi shakllanganlik holati                                  | the state of formation of political knowledge and experience of participation in political processes                 |
| <b>Huquqiy madaniyat -</b>                    | huquqiy bilim va huquqiy jarayonlarda ishtirok etish tajribasi shakllanganlik holati                                  | the state of formation of legal knowledge and experience of participation in legal processes                         |
| <b>Adolat –</b>                               | voqeyliklar o'rtasidagi munosiblik  | compatibility between realities  |
| <b>Davlat –</b>                               | jamiyatda siyosiy hokimiyatni amalga oshiradigan suveren siyosiy tuzulma shakli                                       | a form of sovereign political structure that exercises political power in society                                    |
| <b>Jamiyat –</b>                              | tabiiy ravishda shakllangan odamlarning birgalikda yashash shakli   | a form of coexistence of naturally formed people   |
| <b>Absenteizm –</b>                           | fugarolarning saylovda ishtirok etishdan bosh tortishda namoyon bo'ladigan siyosiy befarqligi shakli                  | a form of political indifference manifested in the refusal of citizens to participate in elections                   |
| <b>Ma'naviyat –</b>                           | ob'ektiv dunyoni inson qalbida to'g'ri aks etishi   | accurate reflection of the objective world in the human heart  |
| <b>Bilim –</b>                                | ob'ektiv dunyoni inson tafakkurida to'g'ri aks etishi   | accurate reflection of the objective world in human thinking   |
| <b>"Ijtimoiy nazorat" fanining ob'ekti -</b>  | ijtimoiy tartibni o'rnatishga xizmat qiladigan davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo'lgan nazorat tizimi faoliyati. | the functioning of a system of control consisting of state and public control that serves to establish social order. |
| <b>"Ijtimoiy nazorat" fanining predmeti -</b> | nazorat faoliyati, tizimi va mexanizmi, davlat va jamiyat sherikligidagi  | analysis of the activities, system and mechanism of control, the organization of                                     |

|  |  |  |
|--|--|--|
|  | nazoratni tashkil qilish hamda ijtimoiy tartib bilan ijtimoiy nazorat o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalarini tahlil qilish.                       | control between the state and society, and the relationship between social order and social control.                                       |
| <b>Ijtimoiy nazorat -</b>                                      | davlat va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan birgalikda, uyg‘unlikda amalga oshiriladigan nazorat.                                      | control exercised jointly by the state and civil society institutions.   |
| <b>Ijtimoiy tartib –</b>                                       | bu holat, ya’ni ijtimoiy regulator bo‘lgan huquq va axloq normalariga rioya qilish ta’minlanganlik holati.                                     | this is the case, that is, the state of ensuring compliance with the norms of law and morality, which is the social regulator.             |
| <b>Intellektual elita –</b>                                    | ziyoliylarning eng sara vakillari  | the best representatives of the intelligentsia   |
| <b>O’rta sinf –</b>  | o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun barqaror daromadga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlam.  | a social stratum with a stable income to meet their needs.   |
| <b>Jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan muhim ko‘rsatkich -</b> | odamlarning qo‘rquvsiz erkin yashashini ta’minlaydigan ijtimoiy tartibning barqarorlik darajasi yoki adolatsizlikdan himoyalanganlik darajasi. | the degree of stability of the social order that ensures that people live freely without fear, or the degree of protection from injustice. |
| <b>Ijtimoiy tartibning o‘rnatalishi -</b>                      | faqat nazoratga doir bilimgagina bog‘liq emas, buning uchun ma’naviyat negizida shakllanadigan daxldorlik hissiga ham bog‘liqdir.              | it depends not only on the knowledge of control, but also on the sense of belonging that is formed on the basis of spirituality.           |
| <b>Fukarolik madaniyati –</b>                                  | siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat va fuqarolik pozitsiyasi shakllanganlik holati.   | the state of formation of political culture, legal culture and civic position.   |



## VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagagi 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
- 16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi“Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori.

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Moddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
2. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
3. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.
4. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.
5. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.
6. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.
7. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.
8. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.
9. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
- 10.Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
- 11.David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
13. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.
- 12.Grant E. A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
- 13.H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
- 14.Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
- 15.Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
- 16.Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
- 17.Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
- 18.Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works

- Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2017. – p. 193.
14. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooksAccoun 2015. - 134 pp.
19. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
20. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
21. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
22. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
23. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
15. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.
24. Aydyn Arif oglы A. Xroniki muslimanskix gosudarstv I – VII vekov xidjty. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
25. Alimova D.A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istorya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
26. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
27. Bolshakov O. G. Istorya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
28. Gabrielyan S. I. Istorya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.
29. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
30. Yevropa mamlakalari va AQSh 1640–1918 yillarda. / A.Xolliyev tahriri ostida. – Toshkent: Universitet, 2010.
31. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
32. Istorya noveyushchego vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. Ye.Yazykova. – Moskva: Nauka, 2015.
33. Istorya noveyushchego vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva: Nauka, 2014.
34. Istorya srednih vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.
35. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
36. Luchenkova Ye., Myadel A. Istorya nauki i texniki. – M.: Litres, 2017. – 431 s.
16. Matyoqubov X.X. Xorazm vohasi bronza asri va ilk temir davri tarixi. – Toshkent.

2017.

37. Mommzen T. Istorya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.
38. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
39. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladynin I., Novikov S. Istorya drevnego mira. Vostok, Gretsya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.
40. Problemy istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.
41. Rtveladze E.V. Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
42. Rusina Yu.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.
43. Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. – T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
44. Xannikov A. Texnika: ot drevnosti do nashix dney. – M.: Litres, 2020. – 384 s.
45. Xoliqulova X. Mustaqillik yillarda O’zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so’z, 2017.
46. Sheypak A. Istorya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

#### **IV. Internet saytlar**

47. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
48. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
49. www. Ziyonet. uz
50. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
51. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy sayti: <http://www.edu.uz/modules/wfchannel>
52. “Xalqso‘zi” gazetasi – [wwwinfo XS. Uz](http://wwwinfo.XS.Uz).
53. “Turkiston” gazetasi – [wwwturkistonsarkor.uz](http://wwwturkistonsarkor.uz).
54. “Ma’rifat” jurnali – [wwwma’rifat-inform](http://wwwma’rifat-inform).
55. “Jamiyat va boshqaru” jurnali – [wwwrzultacademyfreenetuz](http://wwwrzultacademyfreenetuz).
56. “Moziydan sado” jurnali – [www moziy dostlink. Net](http://www moziy dostlink. Net)

**Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil  
mart oyida o'tkaziladigan O'zbekiston tarixi yo'nalishi o'quv-uslubiy  
majmualari bo'yicha  
EKSPERT XULOSASI**

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil mart oyida oliy ta'llim muassasalari professor-o'qituvchilarining "O'zbekiston tarixi" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualar va chiqish testi savollari maxsus fanlar blokidagi modullarning o'quv dasturiga mos va uni to'liq qamrab olgan holda tuzilgan. Test savolari 4 ta muqobil javobda tuzilib, 1 ta to'g'ri javobni o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy majmua va test savollari qo'yilgan talablarga javob beradi.

**Ekspertlar**

|                                |  |   |
|--------------------------------|--|---|
| G'oibov Bobur Sobirovich       | SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrasи professori, t.f.d. |    |
| Xoliqurov Rustam Sharipovich   | SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrasи dotsenti, t.f.n.   |    |
| Meliev Baxtiyor Abduxomidovich | SamDU mintaqaviy markaz bo'llim boshlig'i, g.f.f.d.    |  |
| Murodov Qodir Qo'ldoshevich    | SamDU mintaqaviy markaz muhandis-dasturchi             |  |

Mintaqaviy markaz direktori,  
geografiya fanlari doktori, professor

S.B.Abbasov



## ЭКСПЕРТНОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

**Об учебно-методических комплексах по направление истории Узбекистана, которые пройдут в марте 2022 года в Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете**

В марте 2022 года Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете проведет курс переподготовки и повышения квалификации преподавателей высших учебных заведений по направлению «История Узбекистана». Учебно-методические комплексы соответствуют с учебным планом модулей специального научного блока и полностью охватить его. Учебно-методические комплексы соответствуют современным требованиям.

**Зарубежный эксперт:  
Профессор Педагогического института  
Таджикистана в городе Пенджикент  
доктор исторических наук:**



Вахидов Ш.Х.

